

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**“Himoya qilishga ruhsat beraman”**

**Tarix fakulteti dekani**

**\_\_\_\_\_A. Parдав**

**“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil**

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi**

**Bakalavr darajasini olish uchun**

**I.A.KARIMOVNING "O'ZBEKISTON XXI ASRGA  
INTILMOQDA" ASARINING KONSEPTUAL METODOLOGIK  
MOHIYATI  
mavzusida bajarilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: O. Очиллов**

**Ilmiy rahbar: B.M. Ochilova**

**Ishni himoyaga tavsiya etaman      B.M. Ochilova**

**BMI Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari  
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror № \_\_\_\_,  
\_\_\_\_. 2019 yil) himoyaga tavsiya etilgan**

**Kafedra mudiri**

**M. Xoshimxonov**

## **Jizzax-2019**

BMI A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Institutining Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida bajarilgan.

### **Taqrizchilar:**

Жиззах ДПИ Ижтимоий фанлар  
кафедраси катта ўқитувчи А. Тураев  
Жиззах шаҳар Ғ.Ғулом номидаги  
12 мактаб ўқитувчиси Г. Носирова

Himoya 2019-yilning \_\_\_\_\_soat\_\_\_\_da A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Tarix fakultetida davlat attestatsiya komissiyasining bakalavr darajasini olish uchun yig’ilishida o’tkaziladi. Manzil: Tarix fakulteti 406-xona.

Ish bilan A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Axborot Resurs markazida tanishish mumkin (manzil: Jizzax shahri Sharof Rashidov shoh ko’chasi, 54).

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

### **I-BOB. I.A.KARIMOVNING "O'ZBEKTON XXI ASRGA INTILMOQDA" ASARINING MAZMUN MOHIYATI**.....

1.1.Mamlakatni rivojlantirish strategiyasi,islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo'nalishlari.....

1.2.Siyosiy sohadagi islohotlar va vazifalar.....

1.3.Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish mezonlari va asoslari .....

### **II-BOB. " O'ZBEKISTON XXI ASRGA INTILMOQDA " ASARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI VA METODIKASI**.....

2.1. Mamlakatni izchil va barqaror rivojlantirishda asarning tutgan o'rni va ahamiyati.....

2.2. " O'zbekiston XXI asrga intilmoqda " asaridagi vazifalar ijrosini o'rganish usullari.....

**XULOSA**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**.....

**GLOSSARIY**.....

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikka erishganimizdan keyin hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi avlodni tarbiyalashdan iborat bo'ldi. Bugun ulg'ayayotgan yoshlar ertaga mustaqillikning ishonchli tayanchiga, xalqimizning asosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijodiy, intellektual kuchiga aylanadi. Shunday ekan ularning dunyoqarashi, tafakkuri qay darajada ilg'or bo'lishi, hozirgi davrning yuksak talablarini o'ziga mo'ljal qilib olish, shunga intilish salohiyati mamlakatimiz istiqbolini, millatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini belgilab beradi. Bugungi voqelik, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklari ila tubdan yangicha idrok etish, yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mezonlarda baholashni talab etmoqda. Shu bois yangi jamiyat barpo etish jarayonida insonga va jamiyatga, butun borliqqa munosabatni o'zgartirish, ijtimoiy ongini yangilash muhim ahamiyat kasb etadi va bularning barchasini bajarishimiz, yangi davrda qanday o'zgarishlarni amalga oshirishimiz kerakligi birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida keng bayon etilgan.

### Президент шу асаридан иқтибос киринг

Islom Karimov o'z asarida jamiyat taraqqiyoti tog'risida nazariy konseptual yondashuvni ishlab chiqib o'zbekiston davlatchiligini yangi bosqichda boshladi, damoqkratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, " Kuchli davlatdan- kuchli fuqarolik jamiyati sari" shiori orqali xalqning kelajak yo'lini belgilab olishda ko'makdosh va yangi asrga o'tishga tayyorgarlik bo'ldi. Ushbu asardagi jamiyat taraqqiyoti, yangi davr taraddudi haqidagi g'oyalarni o'rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, kelajak avlodga yetkazish dolzarb masaladir.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti.** Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoda" asari.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti-** mazkur asardagi fojalar va vazifalar.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Islom Karimovning ushbu asarida mamlakatni rivojlantirish va modernizatsiya qilishga baishlangan masalalarga bo'lgan munosabatni ilmiy asosda o'rganilganligini M.Qarshiboyev, A.Saidov, Safo Ochil, X.Odilqorayev, N.Jo'rayev, O.Husanov, S.Korlayl<sup>1</sup> risolalari va asarlarida kuzatish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur Bitiruv malakaviy ishidan asosiy masad, birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoda" asarini ilmiy-falsafiy tahlil ilib, o'sha davr- XXI asr arafasida mamlakatimiz oldida turgan vazifa va muammolarga fuqarolarning munosabatini o'rganishdan iborat. Hozirgi kunda fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirish, demokratik islootlarni yanada chuurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Islom Karimov asarlaridan keng foydalanilayotgan bir paytda, uning "O'zbekiston XXI asga itilmoda" asarining ham mazmun mohiyatini jamiyat a'zolariga yetkazish ushbu BMI ning asosiy maqsadidir.

BMI ning vazifalari quyidagilar:

- birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston xxi asrga intilmoda" asarida mamlakatni rivojlantirish strategiyasini chuqur anglash va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini yoritish;

- siyosiy sohadagi islohotlar va vazifalar ijrosini, yangi demokratik tashkilotlarni shakllantirish, yangi qonunlarni, demokratik tushunchalar erkin itisodiy tizim va bosharuv normalarini ishlab chiqish, tayyorlash va kundalik hayotga tadbiq etish;

- o'zimizga xos milliy demokratik taraqqiyot yo'lining ilmiy-nazariy va g'oyaviy jihatdan asoslanishini yoritish;

ushbu asarda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish mezonlari va asoslarini, uning jamiyat hayotidagi e'tirofini yoritish;

---

<sup>1</sup> Адабиётлар руйхатида берилган .

- mamlakatni izchil va bararor rivojlantirishda “O‘zbekiston xxi asrga intilmoda’” asarining tutgan o‘rni va ahamiyatini, asardagi tamoyil va dasturlarning ijrosini yoritish.

**Bitiruv malakaviy ishining o‘rganish metodlari.** Tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari.**Mavzuni yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar orqali qabul qilingan xolislik, haqqoniylik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar, asar yuzasidan yozilgan boshqa ijodiy ishlar va qabul qilingan dasturlar mavzuni yoritishda nazariy uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Ushbu BMI tarkibiy jihatdan ikki bob, besh bo‘lim va xulosa qismlaridan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 73 bet.

# **I-BOB. I.A.KARIMOVNING "O'ZBEKTON XXI ASRGA INTILMOQDA" ASARINING MAZMUN MOHIYATI**

## **1.1. Mamlakatni rivojlantirish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo'nalishlari**

Mamlakatimizning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy nazariyalar asosida o'rganish, uning umumiy rivojini bashorat qilish, turli ijtimoiy muassasalar va ijtimoiy guruxlarning xarakterlarini rejalashtirish va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish mamlakatimizda kechayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashadi. Bunda davr ruhiga mos bo'lgan zamonaviy ta'limot va qarashlarni atroflicha o'rganish, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov asarlarini, xususan, "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" kitobining mazmun-mohiyatini teran anglash har birimizning burchimizdir. Asar 2000 yilda nashr qilingan bo'lib, o'sha davrda xalqimizga keyingi davrlarda jamiyat va davlat hayotida amalga oshiriladigan ishlarga g'oyaviy asos, dastur bo'lib xizmat qildi.

Mazkur kitob uch qismdan iborat, uning birinchi qismida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asari o'rin olgan. Kitobning "Yangi asr strategiyasi" deb nomlangan ikkinchi qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Islom Karimovning "Uzbekiston XXI asrga intilmoqda" asariga sharhlar bayon kilingan. Kitobning uchinchi qismi "Islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yunalishlari" deb nomlangan. Unda mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta'minlash masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida hayotning o'zi ko'p narsalarga bizning ko'zimizni ochib berdi, ko'p narsaga o'rgatdi. Sobiq Sho'rolar hududidagi aksariyat mamlakatlardan farqli o'laroq, biz balandparvoz havas va shiorlarga, havoyi kayfiyatlarga berilmadik. Bu kasallikdan o'zimizni saqlay oldik. Chunki ko'pchilik eski tuzumni rad etib, eski tizimni buzish, demokratik jamiyat va bozor

munosabatlari dasturini e'lon qilib, o'zini haqiqiy demokratiya tarafdori deya jar solishning o'zi yangi hayot qurish uchun yetarli, deb o'yladi. Holbuki, boshqa xalqlar tarixi o'zgacha achchiq haqiqatni tasdiqlaydi: iqtisodiy rivojlangan, taraqqiy topgan mamlakatlar xalqlari bugungi hayot darajasiga yetish uchun, o'z haquqlaridan, erkinliklaridan va boshqa ne'matlardan to'liq foydalanish uchun ko'p-ko'p yillar, balki yuz yillab tinimsiz va mashaqqatli mehnat qilganlar.<sup>2</sup> Biz eski tizim o'z o'rnini osonlikcha bo'shatib bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va engil o'z ta'siridan, iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada o'zimizga tasavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, kerak bo'lsa, poydevorini qurib olish uchun ma'lum vaqt kerak edi. Yangi demokratik tashkilotlarni shakllantirish, yangi qonunlarni, demokratik tushunchalar, mustaqil davlatni boshqaruv va erkin iqtisodiy tizim normalarini ishlab chiqish, tayyorlash va kundalik hayotga tadbiq etish zarur edi. Eng asosiysi, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tarbiyalash uchun ham muayyan fursat kerak edi. Muhimi, odamlarning eski tafakkur qoliplaridan voz kechishlariga erishish kerak edi. Ular insoniyat tarixida hech qachon bir tizimdan mutlaqo yangi tizimga o'tish silliq kechmaganini, buning uchun jamiyat doimo muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirishi tabiiy va ob'ektiv hol ekanini amalda anglab olishlari zarur edi. Bularning barchasini inobatga olgan holda, eng muhimi, xalqimizning kayfiyatini buzmaslik maqsadida, o'tish davrida uning boshiga tushgan og'ir yuk va tashvishlarni yengil qilish, murakkab sinovlarda hech kimning burnini qonatmasdan, uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan teng va do'stona aloqa qurib, bosqichma-bosqich siyosat olib borishga harakat qildik.

Albatga, biz juda muxim tarixiy davrni boshdan kechirdik. O'tish davrining xar bir kuni mazmuni o'tmishimizning yillariga teng keldi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimi nixoyatda tez. Bu jarayonlar qalbimiz, ongimiz va shuurimiz orqali o'tib, butun

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999.-B.5.



tafakkurimizda to'ntarish yasadi. Milliy istiqlol mafkurasi, mustaqillik g'oyalari bizni shaxs sifatida, inson va odam sifatida tobora shakllantirdi. O'zimizning olis istiqbolimizni Islom Karimov rahnamoligida anik va ravshan belgilab oldik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nisbatan qisqa vaqt mobayni(o'tsh davri)da O'zbekistonni mustaqil rivojlantirish borasida biz nimalarga erishdik?

1.Dunyo xaritasida jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan yangi davlat-O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

2.Mamlakatda soxta g'oya, ma'muriy-buyruqbozlik asosiga qurilgan, sobiq Ittifoqning mustabid tizimiga barham berildi.

3.Erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitustion, huquqiy va amaliy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldik.

4. Ana shu asosda davlat va jamiyatni, iqtisodiyotni, moliya va pul muomalasini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish hamda boshqarishning yangi tizimini barpo etishga erishdik.

5.Mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi va o'rni oshishiga xizmat qiladigan, uning manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning mustaqil yo'li shakllandi va izchil amalga oshirilmoqda.

6. Mamlakatimizning sarhadlari va suverenitetini himoya qilishga qodir bo'lgan yangi milliy armiya tuzildi. Davlatda xavfsizlik va jamoat tartibini ta'min etuvchi mutlaqo yangi asosdagi tizim yaratildi.

7. Tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi.

8. Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz- bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz tafakkurida bu qadriyatning beqiyos ahamiyatini anglab yetish tuyg'usi tobora yuksalib bormoqda.

9. Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi kundan-kunga o'zgarmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda shaxsiy mulk va mulkdorlarning, tadbirkorlarning mavqeyi va o'rni mustahkamlanmoqda.

10. Odamlarimizning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgarmoqda. O'tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatimiz a'zolari hayotdagi o'z o'rnini yangicha tasavvur etmoqda, o'z kuchiga ishonchi ortib bormoqda. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda.<sup>3</sup>

Erishgan yutuqlarimizni tanqidiy ko'z bilan baholar ekanmiz, tan olishimiz kerakki, biz o'tgan yillar mobaynida inson manfaatlarini himoya qilishni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarishga imkon beruvchi zarur zaminni, poydevor, barqaror asosnigina yarata oldik. Bu borada biz hali juda ko'p ish qilishimiz lozim. Bor sa'y-arakatimiz, amaliy ishlarimiz bilan odamlarni muntazam ishtirib bormog'imiz kerakki, islohotlar jarayonida faqat ularning o'zlari faol ishtirok etgan taqdirda, belgilangan maqsadlarga yetish uchun jamiyatning har bir a'zosi jonini jabborga berib ter to'kkan taqdirda, islohotlarni olg'a siljitish, chuqurlashtirish mumkin. O'zbekiston hukumati manfaatdor davlat va ijtimoiy tizimlar bilan inson manfaatlari himoyasini amalga oshirishning yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturini ishlab chidi. Mazkur Dasturda yechish ko'zda tutilgan o'zaro istiqbolli muammolar majmui quyidagilarni o'z ichiga oladi: - shaxsning ijtimoiy-itisodiy manfaatlari imoyasini amalga oshirish; - inson huquqi va uning huquqiy himoyasini ta'minlash; - insonning madaniy, ma'naviy intellektual layoqatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish. Dasturda insonning ko'pqirrali manfaatlariga javob beruvchi tadbirlar belgilangan. Asosiy gap dasturda belgilangan choratadbirlarning quruq gapga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslikda. Mazkur dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatimizning har bir fuqaro, har bir shahar, har bir qishloq hayotida o'z ifodasini topishi o'ta muhimdir. Mazkur tadbirlar yangi tashabbuslar tug'ilishiga, yangi imkoniyatlar ochilishiga olib kelishi, odamlarimizga bunyodkorlik kayfiyati bag'ishlashi bilan g'oyat muhimdir. Bugungi barcha sa'y-arakatlarimiz nafaqat zamondoshlarimiz, balki kelajak avlodlarimiz baxt-saodati uchun ham xizmat qilishini odamlar his etishi ayniqsa muhim. Bu dasturning mazmun-mohiyati bandma-band, bobma-bob, barcha

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.6.

tafsilotlari bilan joylardagi ijrochilarga yetkazilishi, uning ijrosi muntazam nazorat qilib borilishi zarur.

Yangi ming yillik arafasida, butun ma'rifatli dunyo o'z taraqqiyot istibollari, strategiyasini belgilab olishdi. Sobiq Ittifoq hududida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlar uchun bu vazifa alohida ma'no-mazmun kasb etdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiyotni isloh etish va jamiyatni o'zgartirish borasidagi ishlar natijasini xolis baholash, ustuvor yo'nalishlar va bundan keyingi rivojlanish strategiyasini shakllantirish yangi asr bo'sag'asida turgan ko'pgina davlatlar uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatdir. Yangi asr boshida turganligimizni his etsak, bu vazifa biz uchun ham naqadar muhim ekanligi ayon bo'ladi.

Shuni takidlash kerakki; jamiyatni yangilashning inilobiy usullariga biz mutlaqo qarshimiz. Biz tadrijiy- evolyustion islohotlar yo'li tarafdorimiz va bunga qat'iy amal qilamiz.<sup>4</sup> Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini-mentalitetini inobatga olsak, rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir. Hayotning o'zi, itisodiyotni isloh etish va jamiyatni yangilashning "o'zbekcha modeli" tanlagan yo'limiz va tamoyillarimizning to'g'ri ekanini ko'rsatmoda. Islohotlarning aynan bosichma-bosich amalga oshirilishi, demokratik va bozor islohotlarini kuchli ijtimoiy siyosat, aholining nochor qatlamlarini muhofaza qilish bilan uyg'un olib borilishi ijobiy natijalar bermoda. Bu hol, bizning nazarimizda, siyosatimizning qo'llab-uvvatlanishi va e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda. Yutuqlarimizga, eng avvalo, islohotlarning aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga tayangan holda, ularni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishimiz kerak.

Shuni unutmaylikki, bundan 19 yil muqaddam boshlangan yangilanish jarayonining yutuqlari, xalimiz uchun farovon turmush sharoitlarini yaratish, oldimizga qo'ygan maqsadlarga yetishmog'imiz - bularning barchasi istiqbol rejalarini nechog'li aniq, oqilona va eng muhimi, real belgilab olishimizga bog'liq.

Asarda keltirilganidek, dunyo yangi yuz yillik va yangi ming yillik ostonasida

---

<sup>4</sup>Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.13.

turgan edi. Ana shunday bir paytda jaxon saxnasida o'zligini ko'rsatgan O'zbekiston yangi asrdagi va yangi ming yillikdagi rejalarini tuzib oldi. Ana shu maqsadda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi oltita eng muxim ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Shunday qilib, XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida faoliyatimizning mazmun-mohiyati nimalardan iborat bo'lishi kerak edi?

**Birinchi ustuvor yo'nalish** - mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish. O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni kerakki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'iniga aylandi. Shu bilan birga, tabiiyki, biz bugungi erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz. Shundan kelib chiqqan holda, erkinlashtirish tamoyilini kengaytirish sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilar ekanmiz, diqqat-e'tiborimizni ko'proq qaysi vazifalarga qaratishimiz zarur? Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida: avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur. Demokratiyaning eng muhim tamoyili - odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim. Shu ma'noda hokimiyat tuzilmalariga bo'ladigan navbatdagi saylovlar jamiyatni erkinlashtirish va demokratik islohotlar yo'lida siyosiy tizimimiz uchun katta sinov bo'ladi. Saylovlarni Konstitustiyamiz va qonunchiligimiz talablariga qat'iy tayangan holda, umumie'tirof etilgan xalqaro amaliyot me'yorlari doirasida o'tkazish muhim ahamiyatga egadir. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan

mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat. Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish maqsadi - birinchi navbatda davlatning boshqaruv ro'lini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash demakdir. Boshqaruv tizimida asta-sekinlik bilan jamoat tashkilotlari ro'lini oshirish, ularning vakolatlarini kengaytirish orqali fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarishga tayyorlash. Bular O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tanlagan yo'l — huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategiyasining asosi bulib xizmat kildi.

**Ikkinchi ustuvor yo'nalish** - jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat. Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman.<sup>5</sup> Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'alarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda tarixan nihoyatda qisqa davrda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar, milliy davlatchilikni qaror toptirish, shaxs erkinligi va ozodligi yo'lida amalga oshirilgan vazifalar mamlakat fuqarolari umumiy ma'naviy qiyofasini, O'zbekiston fuqarosi fenomenini, uning mentalitetini belgilaydi.

Milliy-ma'naviy merosga yangicha munosabat davlat miqyosida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo

---

<sup>5</sup>Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.15 .

milliy ma'naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi va asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi. Islom olami allomalarining diniy qarashlari, ijodiy faoliyatlari o'rganilib, tavallud topgan kunlari bayram qilindi. Ularga yodgorlik maydonlari yaratilib haykallar o'rnatildi. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida»gi, «Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

**Uchinchi ustuvor yo'nalish** - kadrlar masalasi. Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'lmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq. Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturni amalga oshirish, hayotga tatbiq etish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz - farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i zarur.

Shuni aloxida ta'kidlash kerakki ta'lim soxasiga dunyoning biron bir mamlakatida O'zbekistondagichalik ko'p mablag' ajratilmayapti. Ushbu yo'nalishdan kelib chiqib quyidagi ishlar amalga oshirildi; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. I bosqich – 1997-2001-yillarda

dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda 65 milliard so'm mablag' sarf qilindi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o'z ichiga olib milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirilib borildi.

**To'rtinchi ustuvor yo'nalish** - xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilishni ifoda etadi. Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak.

Davlatning qudrati uning ijtimoiy ximoyaga muxtoj bo'lgan axoli turmush darajasini oshirishda ko'rinadi. Zotan, O'zbekistonda ijtimoiy adolat, ijtimoiy ximoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu yildan-yilga mamlakatimiz iqtisodiy qudrati tobora oshib borayotgan bir paytda xalq, turmush darajasini, uning izchil va barqaror hayotini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ekanligini belgilaydi. Bu O'zbekistonning siyosiy qudrati va iqtisodiy imkoniyati tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Yangilanish va taraqqiyotdagi O'zbekiston modelining bosh ustuvor zamirida inson manfaatlari yotadi va uning yetakchi tamoyili xisoblangan kuchli ijtimoiy siyosati orqali bugungi kungacha quyidagi natijalarga erishirildi:

- mexnat qilish farovonlik manbai ekanligini tushuntirishning kuchli mexanizmini joriy etildi, axolining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish uchun tegishli sharoit yaratildi;

- axolini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning maqsadli va aniq; yo'naltirilgan xarakterdagi dasturga ega bo'ldik, aholi turli ijtimoiy qatlamlariga tabaqalashtirilgan xolda yondashuvni yo'lga ko'yildi;

- axolining moddiy yordamga muxtoj va kam ta'minlangan qatlamlarining davlat tomonidan ijtimoiy ximoya qilinishini kafolatlandi;

- ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilindi va rivojlantirildi

Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi hisoblanadi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilning muhim qismi aholini ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir. O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borildi. Ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi. Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

**Beshinchi ustuvor yo'nalish** - bu iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Mazkur o'zgarishlar korxonalarini yangilash va texnik qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral-xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanishga, eksportga moslashgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmog'i darkor.



O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni boshlar ekan, mustaqillikning dastlabki kunlaridanok; u O'zining imkoniyatlaridan foydalanish, iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni dunyodagi eng ilg'or texnologiyalar asosida izchillik bilan rivojlantirishni maqsad qilib oldi. Ayni paytda mamlakatimizda bir necha O'n minglab qushma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasi butunlay O'zgarib bormoqda. Natijada xom ashyo bazasidan oqilona foydalanib, o'z-o'zimizni ta'minlash va xorijga tayyor maxsulot chiqarish xajmi tobora ortmoqda. Bu bosqichning xususiyati, avvalo, davrning o'ziga xosligidadir. Jahondagi hamma mamlakatlar kabi O'zbekiston ham yangi ming yillik bo'sag'asida turgan edi. Bu XXI asrning dastlabki yillarida respublika amal qiladigan yangi iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni taqazo etdi. Bu esa, o'z navbatida, bosib o'tilgan yo'lga xolis, tanqiddiy baho berishni, islohotning dastlabki bosqichlarida ilgari surilgan tamoyillar va yondoshuvlarning amalga oshirilishi naqadar samarali va to'liq bo'lganligiga baxo berishni, islohotlarni yanada chuqurlashtiradigan ustuvorliklar, olg'a jo'shqin rivojlanish, iqtisodiy munosabatlarning mos mexanizmlarini yaratishga to'siq bo'layotgan omillarni aniq belgilashni taqazo etdi.

Tarkibiy o'zgarishlardan ko'zlangan aniq maqsadlar va uning ijrosi iqtisodiyotda quyidagi natijalarga erishishga sabab bo'ldi:

- iqtisodiyotning xom ashyo yetishtrishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yildi;

- ste'molga tayyor, ya'ni tugallangan maxsulot ishlab chiqarishga o'tildi;

- import o'rnini bosa oladigan tovarlarni iloji boricha mamlakatning o'zida ishlab chiqarib, importga qaramlik cheklandi;

- maxsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport saloxiyatini oshirildi;

- ishlab chiqarishning istiqbolli soxalariga ustuvorlik berilib, barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi;

- mexnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalkimizning milliy va tarixiy an'analariga mos keladigan yangi soxalar barpo etildi;

- o'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar xisobidan milliy bozorni to'ldirish orqali xalq iste'moli mollarining muxim turlariga bo'lgan aholi talablari to'laroq qondirildi.

**Oltinchi ustuvor yo'nalish** - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat. Shu munosabat bilan, O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish, barcha mojaro va muammolarni faqat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan hal etish tarafdori ekanini yana bir bor aytib o'tish kerak. Ammo mintaqadagi ahvol, dunyoning boshqa hududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Mazkur vazifalarni bajargan tadirdagina biz farovon turmushga, adolatli hayotga erishamiz, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rnimiz va nufuzimiz bo'ladi.<sup>6</sup>

O'zbekiston hududida o'z madaniyati va o'z an'analariga ega bo'lgan 130 dan ortiq millat va ellat vakillari yashaydi. Ular ham mamlakatning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga ega. Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirish bo'lishi zarur. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi, ayni shu siyosat milliy bag'rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ushbu yo'nalishdan kelib chiqib mamlakatimiz bugungu kungacha quyidagi natijalarga erishdi. Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaq

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1999-yil. 14- aprel.

xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi, insonparvarlik, oshkoralik, qadrqimmat o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishdir. Shu bois istiqlol yillarida mamlakatimiz 140 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 166 davlat rasman tan oldi. Respublikamizda 80 dan ortiq chet el tashkilotlari va 20 dan ortiq hukumatlararo muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qisqacha xulosa. Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish avvalo, aholining siyosiy faolligini kuchaytirishni, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish vazifasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlashni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish masalasida o'z haq- huquqlarini taniydigan, mustaqil fikrlay oladigan, iymon-irodasi, ehtiqodi mustahkam, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishni, mamlakatimizning kelajagini tahminlovchi yetuk mutaxassislar yetishtirishni taqozo etadi.

Aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlariga, «O'zbek modeli»ning mazmuni va mohiyatiga mos bo'lgan muhim bir mezon bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichiga xos bo'lib, bunda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, eksportga

moslashgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, moliya va bank tizimi faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash mazkur bosqichdagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifa jahondagi globallasuv sharoitida, turli mintaqalardagi vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suveriniteti va barqaror taraqqiyotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etadi. Mazkur bosqichda bunday tizim yaratildi.

O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirilmoqda.

Umuman, «O'zbek modeli» O'zbekistonning o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'li bo'lib, bu yo'l mamlakatimizning tarixiy – milliy xususiyatlarini, geografik va demografik shart-sharoitlarni hisobga olgan, respublikaning bosh, strategik maqsadi sari yo'naltirilgan, islohotlarning har bir bosqichida ijodiy rivojlanib boruvchi dasturiamaldir.

Mazkur yo'nalishlar haqida gap borar ekan, albatta, biz uchun bu ishlar yangilik emasligini aytib o'tish kerak. Gap, avvalo, allaqachon boshlangan islohotlar mohiyatini yanada teranroq idrok etish va uni chuqurlashtirish, taraqqiyot va rivojlanish yo'lidagi sa'y harakatlarimiz garovi - muhim yo'nalishlarni muayyan sharoitlarda ro'yobga chiqarish haqida bormoqda. Maqsadimiz aniq - bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan, erkin, ochiq, demokratik davlat qurish. Biroq ana shu maqsad sari qadam qo'yar ekanmiz, qurayotgan davlatimizning shaklini, qiyofasini o'zimiz yaqqol tasavvur qilishimiz kerak. Shu maqsadga erishish uchun jamiyatimizning taraqqiyot bosqichlarini aniq belgilab olishimiz zarur. Bular murakkab, ayni paytda g'oyat muhim masaladir. Biz bu savollarga qanchalik to'g'ri

javob topa olsak, adolatli, demokratik jamiyat qurishning eng maqbul va ma'rifiy yo'llarini shunchalik tezroq topamiz.

Hozir o'tkazilayotgan isloxotlarning umumiy samaradorligi ijtimoiy xayotning turli soxalari: iqtisodda, siyosiy soxada, jamiyat va davlat qurilishi, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotning zamonaviy inson dunyokarashini shakllantirish soxasida olib borilayotgan isloxotlar bir-biri bilan o'zaro qanchalik muvofiqlashganligiga, bir-birini tuldirishiga bog'likdir. Mana shu nuqtai nazardan qaralganda, isloxotlarning qaysidir soxasini, qaysi bir masalasini xal qilishda ro'y bergan siljishlar, o'zgarishlar boshqa soxalardagi shunday siljishlar va o'zgarishlardan ko'ra ancha tez va chukur ilgarilaganini ko'rish mumkin. Bu hol iqtisodiyot soxasida xam sodir bo'ladi, masalan, moliya-bank tizimida qayta qurish jarayonlari qishlok xo'jaligi, qurilish, kommunal xizmat soxasidagi isloxotlardan ko'ra ancha jadal kechadi. Shuning uchun xozirgi bosqichda isloxot jarayonlarini uyg'unlashtirish, qolok bo'ganlarni ko'tarish, uni yaxlit jarayon sifatida ko'zdan kechirish zarur. Bularning hammasi O'zbekistonning taraqqiyot va yangilanish yo'lidan yanada sobitqaddamlik bilan rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoda" nomli ma'ruzasi jaxon hamjamiyatida o'z so'zi va o'z o'rne bo'lgan O'zbekistonning yangi asrdagi taraqqiyoti asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu uzoq yillarga mo'ljallangan strategik maksad Bosh isloxotchilik vazifasini o'z zimmasiga olgan O'zbekiston davlatining siyosiy qudratini yana bir bor kursatadi. Ushbu asar yozilganidan buyon ya'ni o'n to'qqiz yil davomida asarda keltirilgan O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari jamiyat hayotida amalga oshirilayotganining guvohi bo'lib turibmiz.

## **1.2. Siyosiy sohadagi islohotlar va vazifalar**

Islohotlar - yangicha tafakkur, yangicha izlanishlar mevasi. Biroq har qanday islohot ham avvalo inson manfaatiga uning hayot sinovidan o'tgan tajribalariga va yangi jamiyatning ehtiyojlariga asoslanishi lozim. Tubdan yangilanish davrida

an'analarga tayanib ish tutish, ulardan yangi o'zgarishlarga mos holda oqilona foydalanish islohotlarning izchil va sobitqadamlik bilan amalga oshishiga hamda jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi. Jamiyatni demokratiyalashtirishning yana bir muhim sharti odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona ko'chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Insoniyat bosib o'tgan taraqqiyot yo'li yana shundan dalolat beradiki, demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi balki biz o'zimiz uni yaratamiz. Biz ham demokratiyani yaratish uchun anchagina islohlarni amalga oshirdik va bunda Islom Karimovning ushbu asaridan dastur sifatida keng foydalandik.

O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni aytish kerakki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi. Shu bilan birga, tabiiyki, biz bugungi erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz. Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida: avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarni boshqarib turuvchi demokratik institutlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi mexanizmlar xisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy soxasida demokratik institutlarni shakllantirish jamiyat xayotini erkinlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va siyosiy tizimni yanada isloh qilishga qaratilgan va bu Islom Karimovning O'zbekiston XXI asrga intilmoqda'' asarida keltirilgan rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida ham o'z tasdig'ini topdi. Qolaversa bugungi kunda siyosiy soxadagi islohotlar boshqa sohalardagi islohotlarning qonuniy asosi bo'lib hizmat qilmoqda.

O'zbekistonda inson xayotining xar bir qirrasini, uning ehtiyojlari, yashash huquqi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Davlat, uning siyosati faqat xalq manfaati uchun xizmat qilishi zarurligi aniq va lo'nda qilib ko'rsatib berildi. Bu jamiyatning umumiy madaniy-ma'naviy qiyofasini belgilash bilan birga mamlakat fuqarolarining ma'naviy-axlokiy va ruxiy kechinmalariga ham katta ta'sir ko'rsatdi. 2008-yil 1-yanvardan mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. Mamlakatimizda jinoiy jazolashning insonparvar huquqiy tizimi tashkil etildi. Bugungi kunda inson va uning hayoti oliy qadriyatdir. Ana shuning o'zi davlat bilan fuqaro, jamiyat bilan axoli o'rtasidagi munosabatlarni, ularning adolatga tayangan va uyg'unlashib ketgan yagona jonli organizmga aylanib borishiga keng imkoniyat yaratadi.

Siyosiy islohotlar jarayoni siyosiy institutlar - partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlarini mustahkamlash va rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Bu gap, avvalo, partiyalar masalasiga taaluqli. Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari hokimiyat tizimlaridan, avvalo hokimiyatning saylab olinayotgan organlaridan o'rin olish uchun kurashar ekanlar, aniq maqsadlari, harakat dasturlari bo'lishi kerak. Barcha demokratik davlatlarda bo'lganidek, bizda ham partiyalarning o'zaro kurashi, g'oya va qarashlarning raqobati, kerak bo'lsa, saylovchilar ovozi uchun kurash bo'lishi tabiiy.<sup>7</sup> Albatta, bu kurash mamlakatda qabul qilingan konstitutsion huquqiy me'yorlar va qonunchilik tartib-qoidalari doirasida olib borilishi kerak.

Hozirgi kunda bu kamchiliklar bir muncha bartaraf etilib, siyosiy partiyalarni ro'li va mavqei oshirildi va yangi siyosiy partiya tashkil etilgani, mavjudlari muvofiqlashtirilgani siyosiy islohotlarning jamiyat hayotidagi tasdig'idir. Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. Ko'ppartiyaviylik – jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi. Bu holat demokratik yo'liga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko'rsatishi demokratik

---

<sup>7</sup>Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.21.

huquqiy davlat barpo etishning asosiy garovidir. O'zbekiston ham mustaqillikning ilk kunlaridan ko'ppartiyavilik tizimini hayotga tadbqiq etdi. Yangi asr boshida ham bu tizim qayta ko'rib chiqildi va hozir ham davom etirilmoqda. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o'z o'rniga ega partiyalardan biri O'zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bo'ldi. Ushbu partiya 1992-yil tashkil topgan. Lekin besh yillik faoliyati o'z vazifalari doirasida faoliyat yurita olmadi, deb topildi. 2000-yil aprelda «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasining qo'shma qurultoyi bo'lib, unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi, ularning birlashib ishlashlari maqsadga muvofiq, degan xulosa asosida ikkita partiya birlashdi. 2008-yil iyunda O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi va O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib, unda asosiy masala O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasini birlashtirish to'g'risidagi masala ko'rildi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqinligi ta'kidlandi va ular birlashtirildi. O'zbekiston siyosiy tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib ulgurgan O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi (O'zLiDeP) 2003-yil noyabrda tashkil topgan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umum-milliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisarlari va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. 2008-yil O'zbekiston Respublikasining «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga besh yil muddatga 135 deputat saylanib, Qonunchilik palatasining 15 deputati O'zbekiston ekologik harakatidan, o'z ichki qurultoyidan saylanishi belgilandi. O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o'tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilganini ko'ramiz. Jumladan,



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi hamda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ro'lini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni shular jumlasidandir. Tabiiyki, siyosiy partiyalarning jamiyatda qanchalik mavqega ega ekanligini belgilovchi asosiy mezon bu ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qanday natijalarga erishganligi hisoblanadi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Hozirgi davrda respublikada 306 ta respublika ahamiyatiga molik jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatib, ulardan 64 tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga egadir. Ularning 48 tasi jamg'arma, 78 tasi jamiyat, 5 tasi siyosiy partiya, 42 tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2 tasi ijtimoiy harakat, 20 tasi markaz, 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo'mita, yana 22 tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tganlar. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan 2237 ta jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili - odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim. Shu ma'noda hokimiyat tuzilmalariga bo'ladigan navbatdagi saylovlar jamiyatni erkinlashtirish va demokratik islohotlar yo'lida siyosiy tizimimiz uchun katta sinov bo'ladi. Saylovlarni Konstitustiyamiz va qonunchiligimiz talablariga qat'iy tayangan holda, umume'tirof etilgan xalqaro amaliyot me'yorlari doirasida o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.<sup>8</sup> Shu asnoda saylov tizimida ham quyidagi muhim o'zgarish amalga oshirildi Markaziy saylov komissiyasi 1998-yildan e'tiboran mustaqil muvaqqat organ sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, 2014-yildan esa doimiy organ sifatida tashkil etildi. Markaziy saylov komissiyasi va uning a'zolari

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.13.

o'z faoliyatini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.<sup>9</sup>

Davlat tasarrufida asosan konstitusion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, Huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, samarali tashqi siyosat o'tkazish kabi vazifalar qolishi kerak. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. O'tgan yillar davomida o'zini-o'zi boshqarish organi bo'lmish mahalla institutlarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar qilindi. Xususan, 2004- yilda esa "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Bu esa asarda keltirilgan siyosiy islohotlarning real hayotdagi amaliy ifodasidir.

Davlat qurilishi jarayonlarini chuqurlashtirish va erkinlashtirish to'g'risida gapirganda, Konstitustiyada va qabul qilingan qonunlarda ko'zda tutilgan - hokimiyatning turli tarmoqlarini bir-biridan ajratish tamoyili amalda qanday ro'yobga chiqarilayotganiga alohida e'tibor berish muhimdir. Mamlakatimizda amalda davlat boshqaruvi tizimi tarkib topdi.

Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lishi darkor. Ommaviy axborot vositalari hamisha jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan

---

<sup>9</sup> Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot. Toshken, "O'zbekiston", 2001. -B. 35.

faol qurol bo'lib kelganini unutmasligimiz kerak. Shu sababli jurnalist kadrlarning, qalami o'tkir, demak, odamlarning qalbiga kirib bora oladigan kishilarning mas'uliyati kattadir. Biz jurnalistlar ahli siyosiy yetuk, mas'uliyatli, halol va vijdonli, o'z ishini yaxshi biladigan, mamlakatimizning vatanparvar kishilaridan iborat bo'lishiga erishmog'imiz darkor. Ushbu asardan kelib chiqib bu masalalarga ham davlatimiz tomonidan etibor qaratildi va ularning erkinligi taminlandi.

Asarda aytilganidek fuqarolarning ariza va shikoyatlari yuzasidan qilinishi kerak bo'lgan ishlar quyidagilar edi; fuqarolarning ijroiya organlariga murojaatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning shikoyatlarini o'z vaqtida va odilona ko'rib chiqish uchun, davlat organlari mas'uliyatini oshirish maqsadida "Davlat organlari tomonidan fuqarolarning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" qonun qabul qilish zarur.<sup>10</sup> Bu borada ham bir qancha ishlar amalga oshirildi xususan, 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi.

Ma'lumki, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular

---

<sup>10</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B. 31.

jumlasiga kiradi.<sup>11</sup> Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi. Shunday ekan, mamlakatimizda demokratik islohotlarni asarda takidlanganidek bosqichma—bosqich amalga oshirilmoqda.

Biz XXI asrda yashaydigan yangi uyimizning poydevorini qurishni boshladik va buning uchun "O'zbekiston yangi asr boshida" degan uzoq muddatga mo'ljallangan, keng qamrovli rivojlanish dasturini ishlab chiqildi hamda hayotga tatbiq etildi. Bu dasturda har bir fuqaro, har bir vatandoshimizning bugungi va kelajak manfaatlari o'z ifodasini topishi lozim.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan buyon o'tgan yillar mobaynida O'zbekistonning siyosiy tizimida ulkan va jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Avvalambor, davlatimizning huquqiy poydevori yaratildi. Eng yuksak demokratik talablarga javob beradigan mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitustiyasi qabul qilindi. Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston parlamenti - Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi. Hokimiyat bo'linishining konstitustion tamoyillari asosida qator qonunlar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Ijro va sud hokimiyati tarmoqlari shakllandi. Yangi asr boshida davlat qurilishi va ularning vazifalarini takomillashtirish borasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bulardan eng ahamiyatlisi, 2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi. Bu 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum va shu asosda qabul qilingan «O'zbekiston Res-publikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston, 1999. -B.5.

Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlar asosida amalga oshirildi.

Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlarga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul,moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir. Ana shunday davlat va jamiyatni qurish, haqiqiy demokratik qadriyatlarni vujudga keltirish - bizning bosh konsepsiyamiz va milliy ravnaqimiz asosidir.

Bugun biz davlat qudratiga hokimiyat va boshqaruv idoralarining soni va miqyosiga qarab emas, aksincha, ularning ish tizimi qanchalik samara berayotganiga, ular faoliyatining qonuniy asoslari qay darajada shakllanganiga qarab baho berishimiz lozim. Yaqin kelajakda fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarishda qatnashuvini ta'minlaydigan huquqiy asoslarni takomillashtirishga alohida e'tibor berish zarur. Bunda siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamg'armalar hamda uyushmalar faoliyati nazarda tutilyapdi. Hozirgacha ularning faoliyati "Jamoat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan edi. O'z vaqtida progressiv bo'lgan bu qonun siyosiy hayotimizni demokratiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.<sup>12</sup> Biroq siyosiy jarayonning nihoyatda tez rivojlanishi oqibatida mazkur qonun bugungi kun talablariga javob bera olmay qoldi. Natijada yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish uchun bir qancha farmon va qarorlar qabul qilishga to'g'ri keldi. Bugungi kunda bittagina qonun emas, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, uyushmalar huquqini oshiradigan, ularning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rne va ahamiyatini belgilab beradigan, davlat ishlariga ta'sirini kuchaytiradigan butun bir qonunlar tizimiga ehtiyoj sezilmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun avvalo manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar tushunchasini o'rganish talab etiladi. Ijtimoiy-

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1999-yil. 14- aprel.

siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish, turli qatlamlar va guruhlarining siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini uyg'unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati demokratik fuqarolik jamiyati takomillashib borgani sayin yanada kuchaydi. Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, siyosatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur.<sup>13</sup>

Qonunchilik sohasida asosiy e'tibor boshqaruv organlari faoliyatini aniq belgilab qo'yish, zo'ravonlik va o'zboshimchalikka barham berishga qaratilmog'i zarur. Bu borada ham Oliy Majlis ado etishi lozim bo'lgan ishlar nihoyatda ko'p. fuqarolarning manfaatlarini va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish tartibi ham uchraydi. Albatta, bu hol - Inson huquqlari umumjahon deklarastiyasiga va bizning Konstitustiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlarini va haq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor! Parlamentimiz - Oliy Majlisning inson huquqlari va erkinligini himoya qilish, uni amalga oshirish, unga kafolat berish borasidagi ta'siri xususida so'z yuritar ekanmiz, qator demokratik mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, Oliy Majlis tarkibida inson huquqlari masalasi bilan shug'ullanuvchi vakillik tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylayman. Bu oliy qonunchilik organimiz maqomiga mos keladi. Muhimi, u jamiyatimizda inson huquqlari muammosini hal etishni yangi sifat darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi<sup>14</sup>.

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston, 1999. -B.24.

<sup>14</sup> Zokirov S. huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. - Toshkent, "Mehnat", 1999. -B.53.

- Davlatimiz fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokiga alohida ahamiyat bermoqda. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar ta'minlanmoqda. Endilikda fuqarolar o'zlarining siyosiy iroda va manfaatlarini ifodalaydigan jamoat tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishlari zarur.

Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning siyosiy-ijtimoiy manfaatlarini uyg'otadi, xarakterga keltiradi, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni, ya'ni jamiyat va davlat ishlariga jalb bo'lishi amalga oshadi;

- qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy ishtirok, bunda oddiy fuqarolar manfaatlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erkin insoniy qadriyat bag'ishlaydi, fuqarolarda siyosiy mas'ullik ruhini shakllantiradi;

- fuqarolar manfaatlarining turli xil jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishi natijasida olgan qoniqishlari ularni yanada faollashtiradi, bu bilan o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi; siyosiy ishtirok har bir fuqaroni o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashiga shart-sharoitlar yaratadi, o'z mamlakatiga egalik hissinini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ularini mavjlantiradi;

- davlat hokimiyati barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarining o'z siyosiy starorlarida ifodalanishiga va ularni hayotda amalga oshishiga erishish jarayoni uni yanada mustahkamlaydi, siyosiy qarorlarni bajarishga doir tadbirlarini jamiyat hech bir surishtirishiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi va qullab-quvvatlaydi;

- jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolar irodasining ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratiladi, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishidagi asos mustahkamlanadi. Qolaversa, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar manfaatlarini kelishtirish natijasida hamkorlik va birdamlik ro'y beradi, shu asosda fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri hayotda

o'z ifodasini topadi.

Sud- huquq soxasiga daxldor isloxotlarni chuqurlashtirish masalalariga alohida to'xtalish kerak. Biz advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini taminlash , ularning vakolatlari va maqomini prokratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora tadbilar ko'rmoqdamiz. Har qanday sud jarayonida, jinoiy ish ko'rilayotgan bo'lsa ham, fuqarolik ishi ko'rilayotgan bo'lsa ham, bir tomonda ayblovchi, ikkinchi tomonda teng huquq bilan himoyachi so'zga chiqadi. Faqat qonunga bo'ysunuvchi sud, sudyalalar qonuniy huquqlarga, o'z vijdoniga amal qilib, ayblovchi va himoya qiluvchi tomonlarning fikrlarini xolisona hisobga olish asosida mustaqil ravishda adolatli, qonuniy hukm chiqaradi. Bundan xulosa qilib aytish kerakki, sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Faqat shunday qilganda hozir sudni jazolovchi organ deb biladigan odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi. Ana shundagina sud hokimiyatning haqiqiy mustaqil uchinchi tarmog'iga aylanadi. Bu boradagi muammolarni hal qilish uchun sud-huquqiy tizimini isloh qilish bo'yicha takliflarni tayyorlash uchun Oliy Majlis huzurida - parlamentda doimiy ishlaydigan vakolatli komissiya tuzish zarur va bu komissiyaga tegishli vakolatlarni berish kerak.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XXI asrda mamlakatlarning yuzini ularning arzon populizmi va demokratiya bilan kiladigan o'yinlari emas, balki go'zal xayoliy g'oyadan vokelikka aylangan haqiqiy demokratik, ochik adolatli jamiyat tomon qo'ygan shaxdam qadamlari, bu borada qo'lga kiritgan yutuqari belgilaydi. Bugun O'zbekiston tanlagan yo'l, u ishlab chiqqan demokratik tamoyillar mazmunini ana shu haqiqat tashkil etadi.

Taraqqiyotning O'zbekiston uchun maqbul tamoyillari ishlab chiqishda avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday bo'lishiga e'tibor berildi va O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha "tizm"lardan xoli va qanday nomlanishidan qat'iy nazar, adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bulmog'i lozimligi



belgilab qo'yildi. Shuning uchun xam, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard-natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi.

Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish — bosh vazifa ekani belgilab qo'yildi. O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. Bu — mustaqil, demokratik, huquqiy davlat ekanligi etirof etilmoqda. Bu — insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Bunday natijalarga ushbu asardagi vazifalarning amalga oshirilishi orqali erishilmoqda.

Bugungi kunda siyosiy sohada anchagina salmoqli natijalarga erishdik; davlat va boshqaruv organlari faoliyatlari tubdan o'zgardi, davlatning boshqaruvchilik vazifasi o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari zimmasiga tushdi, fuqarolarning siyosiy ongi, siyosiy faolligi, huquqiy savodhonligi ortib bormoqda. O'tgan yillar davomida amalga oshirilgan siyosiy islohotlar shuni ko'rsatadiki, asarda keltirilgan vazifalardan kelib chiqib Bosharuvning barcha shakllarida (Oily Majlis, Vazirlar mahkamasi, Sud hokimiyati, Mahalliy hokimiyat organlar, fuarolarning o'zini- o'zi bosharish organlari) faoliyatning oshkoraligi, qonunlarning inson huquqlariga to'laqonli mos kelishi, demokratik qadriyatlarning taminlanganligi amalda o'z tasdig'ini topmoqda.

### **1.3.Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish mezonlari va asoslari**

Mustaqillikni mustahkamlash davrida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, barcha jabhalarda tub tarixiy burilish bilan bog'liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Ana shunday ulkan vazifa va masuliyat xalqimizdan bir tomondan ma'naviy yangilanish jarayonini to'liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa demokratik jamiyat qurishda unga tayanishni taqozo etadi. Negaki milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish, taraqqiyot omiliga aylanmoqda. Shu bois, mustaqillik yillarida jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa

qo'shgan buyuk allomalarimizning merosini ham yangidan ijodiy o'zlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Hoja Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlarini tashkil etadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Masalaning xuddi shu jihatiga urg'u berib, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bayon etilgan oltita ustuvor yo'nalishning bajarilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalar paydo bo'ldi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'ziga xos milliy ma'naviyat va madaniyatning sohibiga aylandi.

Muallif haqli ravishda ta'kidlaganidek, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz **kerak**”.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi va ertangi hayotimiz bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan g‘oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o‘rtaga qo‘yilgan mazkur asar insonning yuksalishida ma'naviyat olamining qanday ta'sir va kuchga ega ekani, shuningdek, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida har tomonlama mushohada yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat

asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratishga da'vat etishi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Muallif xalqimizning ma'naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta'kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masalaga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, muallif keyingi asarlarida ham ma'naviy merosimizni qayta tiklash g'oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo`nalish bo`lishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to`xtalib insonparvarlikning o`zbeklarga xos qirralarini ko`rsatib berishga e'tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o`zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo`ravonlik uning tabiatiga yotdir». Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini talabalarga yetkazish muallimning diqqat markazida bo`lishi zarur. Chunki milliy ma'naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: «Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O`zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o`z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg`usi bilan yetilgan». Ma'naviyatning milliy taraqqiyotidagi o`rni va uni o`zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: «Ma'naviyat o`z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».

Birinchi Prezidentimiz milliy taraqqiyotimizning dasturi darajasiga aylangan birinchi asari «O`zbekistonning o`z istiqloli va taraqqiyot yo`li» dayoq

ma'naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib berib shunday yozgan edi: «Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog`ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchilik bilan ma'naviyat chashmasini **izlaydi**».

Birinchi Prezidentimiz asarlarini qunt bilan o`rganib borar ekansiz, ularda oldingi asarlarda ilgari surilgan g`oyalar keyingilarida ijodiy rivojlantirilgan, mazmunan va mohiyatan boyitilganligini ko`ramiz. Eng asosiysi shundaki, ana shu boyitish jarayonida jamiyat va millatimiz taraqqiyotida sodir bo`lgan ijobiy o`zgarishlar bilan bir qatorda yuzaga kelgan yangi muammolarni hal etishning nazariy asoslari o`z ifodasini topgan. Jumladan, u Oliy Majlisning XIV-sessiyasidagi «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusidagi ma`ruzasida ma'naviyat tushunchasiga quyidagi fundamental ta'rifni beradi: «Ma'naviyat... insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan vijdonini uyg`otadigan qudratli botiniy **kuch...»dir**.

O`zbekiston bugungi kunda tom mahnodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda. Tarixdan ma'lumki, biror xalq hayotida tub burilish sodir bo'layotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq o'zgartirmog'i lozim bo'ladi. SHu bois ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxsning va butunisicha jamiyatning tafakkurida, dunyoqarashida, ma'naviy olamida o'zgarishlarni taqozo etadi. Yangi asr boshida buni anglagan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida jamiyat manaviyatini yanada yuksaltirishga katta etibor berdi. Erkin fuqaro, ozod shaxs ma'naviyatini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar va milliy o'ziga xoslikning uyg'unligini ta'minlash, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivojini ta'minlashda ajdodlarimiz ma'naviy merosi, xalqimiz ruhida yashab kelayotgan ilg'or an'analarga tayanish ustuvor vazifa etib belgilandi. Yuksak ma'naviyatning birinchi sharti , bu erkinlikdir, jamiyat a'zolarining o'zini ozod va erkin xis etishidir.

Aholining barcha qatlamlarida mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish - bu zamon talabidir. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, chunki mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat yo'lini yo'qotishi muqarrar. Qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tabiiy. Eng dahshatli narsa - bu fikr qaramligi, tafakkur qulligidir. Agar oddiy qilib aytadigan bo'lsak, xalqimizning "Yog'ochning bo'shini qurt yeydi", degan bir maqolini eslaylik. Xuddi shu kabi ma'naviyati qashshoq, o'zining mustaqil dunyoqarashiga, fikriga ega bo'lmagan odamga har qanday makkor o'z ta'sirini o'tkaza oladi.<sup>15</sup>

Yoshlar - bamisoli navnihol, agar ularni to'g'ri o'stirib, parvarishlab voyaga yetkazmasak, iymonsiz, vatanfurush, g'alamis kimsalar ularni yo'ldan ozdiradi. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir- oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. O'shlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog'liq. Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur. Jamiyatni manaviy jihatdan yuksaltirishga eng avvalo, yosh avlod ongida ma'naviy-

---

<sup>15</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B. 17.

ahloqiy asoslarni, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni mustaxkamlash orqali erishiladi. Bu esa, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda quradigan erkin, mas'uliyatli va o'z burchini yuksak darajada tushungan, xar tomonlama barkamol kishilarni tarbiyalash borasida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Xo'sh, mazkur jarayonda nimalarga ahamiyat berish kerak? Jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash jarayonida fan, madaniyat va milliy san'atni rivojlantirish yuzasidan muayyan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish kerak. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, ya'ni: o'zbek xalki va davlatchiligi tarixi; O'zbekiston xalklarida badiiy, falsafiy va pedagogik fikrlarning qaror topishi va rivojlanishi tarixi; etnografiya, etnogenez; adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa soxalardagi ilmiy tadqiqotlarni yangipog'onaga ko'tarish lozim buladi. Shu jihatdan olganda zamonaviy uslub asosida tarixiy merosni o'rganuvchi yosh olimlarning yangi ilmiy maktabini shakllantirish, bolalar va o'quvchi yoshlar uchun ilmiy, ilmiy-ommabop kompyuter dasturlarini va ma'lumot-axborot adabiyotlarini nashr etish borasida katta ishlar qilinishi lozim.

Ma'naviy yangilanish jarayoni ko'p jihatdan bayramlar, urf-odatlar, milliy o'yinlarda O'z ifodasini topgan ilg'or milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlar va normalarni qayta tiklash, rivojlantirish va xayotga kiritish bilan uzviy bogliqdir. Xozirgi zamonda milliy madaniyatning tiklanishiga bo'lgan talab-ehtiyojning o'sishi xalq va millatning ma'naviy sog'lomligi ko'rsatkichi bulib, jamiyatimizning ulkan saloxiyati, ma'naviy yangilanishidan dalolatdir.<sup>16</sup>

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2001 yil 18 yanvarda qabul qilgan "Milliy istiqlol oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'risida"gi Farmoni. "Ma'rifat" gazetasi, 2001 yil 20 yanvar.

maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon stivilizastiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy stivilizastiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan boqliq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tuilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan urur va iftixor bag'ishlaydi. Yangi asr boshlarida ularning xotirasi yod etildi. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarining tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida»gi, «Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq ozaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabbiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Otabobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar, bebaho ma'naviy obidalarining son sanog'i yo'q. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis otabobolarimizning aql-zakovati, qalb-qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning

davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas boliq bo'lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti. Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni barpo etishni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kunga ishonchi ortib borayapti. Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko'plab chop etish, ayniqsa madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o'rganish muhimdir. Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot - jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat- ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini



ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – «Al-jome' assahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda. Umuman din borasida ham yangi asr boshida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, SSSR davrida O'zbekistonda 89 masjid, 2 ta madrasa bo'lgan bo'lsa, 2017-yilga qadar esa 2033 ta masjid, Islom universiteti, Islom instituti, 16 ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib keldi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti respublika miqyosida nishonlanyapti, diniy jurnal va gazetalar nashr etilib, televideniya va radioda diniy mavzularda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar olib borilyapti. O'zbekistonda din davlatdan, siyosatdan ajratilgan, ammo xalqdan ajratilgan emas. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Din ishlari bo'yicha qo'mita» dindorlar ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashib kelmoqda. 2007-yilda Islom Hamkorligi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan «Toshkent – Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatini dinga bo'lgan munosabatining natijasidir.

Inson taqdiri oilaga, oila ta'lim-tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'lsa, o'z navbatida oiladagi o'zaro munosabatlarga atrof-muhitning ta'siri o'ta muhim. Zero, maqsadimiz "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" ekan bola tarbiyasiga jamiyatning ta'sirini oshirish lozim. Jamiyatning birinchi bo'g'ining tashkil etgan oilalarning sharoitlariga keladigan bo'lak, ular bir – birisidan tubdan farq qiladi. Shuningdek, ulardagi bolalarning hulqu atvoriga ta'sir qilish darajasi ham har xildir. Ya'ni bu ta'sir qilish ijobiy yoki salbiy ma'noda bo'lishi mumkin. Bularning barchasi esa jamiyatda xushyorlikni talab qiladi. "Xushyorlik" deganda birinchidan atrofdagilar bilan muloqatda; ikkinchidan, ularning nimalar bilan bandligi;

uchinchidan, ularning hatti-harakatlari kelajak uchun ijobiyligi yoki salbiy oqibat olib keladi!

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehroqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informastiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi.<sup>17</sup>

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning ro'li va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. Biz «Mahalla – ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz. Mahalla haqida gapirganda, ko'pchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o'zlarining dardu tashvishlarini hal qiladigan ta'sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi, ayni vaqtda ona-yurt ramzi bo'lgan mahallaga o'zining munosabatini izhor etadi.<sup>18</sup> Shunday ekan mamlakatimizni keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda inson manaviyatini shakllantiruvchi omil bo'luvchi mahallaning ham tasirchanligini oshirishimizga etibor berishimiz kerak. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov istiqbolimizning ilk pallalaridayok fuqarolik jamiyati, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari, degan g'oyalarni ilgari surar ekan, xalqimizda tarihan shakllangan ana shu jamoa ruxiyatini rivojlantirish, maxalla ishini nihoyatda kuchaytirish va uni ijtimoiy

<sup>17</sup> Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. –T.: «Akademiya», 2002. 17-bet.

<sup>18</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. 38-bet.

mudofaza qilish, moddiy yuksaltirish borasida qator chora-tadbirlar belgiladi. Bu, o'z navbatida, o'sha demokratik tamoyillarni amalga oshirishda muhim ro'l o'ynashi muqarrardir. So'nggi paytlarda mahallalar faoliyatiga e'tibor yanada oshdi. Ularning ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy mustaqilligi yo'nalishida davlat ahamiyatidagi qator xujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2004- yilda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Xalqning ilm-ziyo salohiyati, teran ma'naviyati va bunyodkorlik qudratiga, shu bilan birga, jahon umumbashariy yutuqlariga asoslangan holda, taraqqiyotimizning maqsad va marralarini belgilab oldik. Ma'naviyatning sehrli kuchi shundaki, u inson qalbida ezgulik, saxovat, mehr- muruvvat kabi olijanob fazilatlarni uyg'otadi. Milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir. I.Karimov hech qachon ma'naviyatni moddiyotdan, moddiyotni ma'naviyatdan ustun bilmagan, aksincha bu ikki omilni insonni ikki qanoti bo'lishi lozimligini uqtiradi.

Ushbu asarda keltirilgan shaxs manaviyatini shakllantiruvchi omillar yani oila, din, mahalla, ta'lim-tarbiya, milliy qadriyatlarimizga istiqbolning dastlabki yillaridan bugungi kungacha katta etibor berildi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki davlatimizning kelajakdagi istiqbollarga erishish, fuqarolarning manaviyatini yuksaltirish uchun bundan keyin ham yuqoridagi mezonlarni jamiyat hayotida tadbiq etilishi davomiyligini taminlash lozim.

Mamlakatimiz taraqqiyot pillapoyasidan yangi-yangi cho'qqilar sari qadam qo'yar ekan, biz yashayotgan zamon sur'atlari shiddat bilan tezlashib, oldimizda

yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo'lar ekan, tabiiyki, ma'naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yoru va solom kelajagini har qanday tahdid va to'fonlardan – davr o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi va shakli o'zgarishiga qaramasdan – bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo'lishi darkor.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar, nasroniylar va yaxudiylar bilan ko'p asr birga yashab kelganlar. So'ngi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "marifatli hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirinlar va diniy taqiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlar uchun boshpana ham berdi.

Istiqlol sharofati bilan manaviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftihor, butun dunyo uchun bag'rikenlik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq Ruhi qudratining birinchi belgisidir. Bu Ruh shu qadar yorqin va o'ziga hoski, u integratsiyasidan aslo cho'chimaydi, aksincha, jahon hamjimiyaatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda. O'zbek xalqi Ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-ahloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan xodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xosligini yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona manaviy –ruhiy negizni vujudga keltirdi.

Xalqimiz tarixan turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lishishiga qaramay, pankturkizm va "Buyuk Turon" shovinistik oyasini qatidan rad etdi. Biz uchun Turon-mintaqadagi turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning o'ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bunday tashqari, umumiy maaniy, tarixiy va antropologik ildizlarimiz bizni taojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o'z madaniyatimizni Makaziy Osiyo uchun malum darajada noyob bo'lgan turk va fors

madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to'la huquq beradi. Ana shunday boylikka ega bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy integratsiyalashuvining tashabbuskori bo'lishi mumkin va lozim.

O'zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko'ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvi, shuningdek, ilmiy-tehnikaviy kadrlar bilan taminganlikni, turmush tartibi va tarzining chuqur ananaviylikni o'zida mujassamlashtirgan. Shu bois u Sharq bilan g'arb muloqotida vositachi, ko'plab sivilizatsiyalar manaviy aloqasining ramzi ham bo'lishi mumkin. Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini anglatadi.

Biz tarixiy adolatni, milliy-ma'naviy xadriyatlarni tiklar ekanmiz, bu, uz navbatida, xalkimizning birligiga, jamiyatimizning mustaxkamligiga xizmat kiluvchi omildir. Shu bilan birga bugun yangi poydevori tiklanayotgan madaniyat, san'at, fan, ta'lim soxalarining butkul boshka bir sharoitdagi rivoji va istikboli uchun Xam muxim ta'sir kUrsatuvchi omil. Bizga ulug allomalarimiz ijodiy merosi, milliy kadriyatlarimiz, an'ana va udumlarimizning tiklanishi muzey eksponatlari sifatidagina zarur bulganida, u madaniy siyosat darajasiga kutarilmas edi. Masalaning moxiyati pgundaki, xalkka kaytarilayotgan meros va uni Urganish, tadjik etish uchun yaratilayotgan imkoniyat XXI asr O'zbekistonining madaniy va ma'naviy qiyofasini eng taraqqiy topgan madaniy davlatlar atrofida tasavvur etish uchun xizmat qilmog'i kerak. Xalqimiz ma'naviy merosining hayotbaxsh ta'siri bugun juda kup soxalarda namoyon bo'lmoqda. Bugungi shaxarsozlik va arxitekturadan tortib, qishloq xo'jaligi va dehkonzhilikkacha, milliy udum, an'ana va bayramlarning yangi sharoitlarga muvofiklashib tiklanayotgani va rivojlantirilishigacha yoki ijtimoiy fan soxalarining maqsad mavzularini belgilash xamda etnik birlikni ta'minlash, yangi dunyoqarashni shakllantirish, estetik tushunchalarni, axlok, ta'lim-tarbiya mezonlarini aniklashgacha bo'lgan qator soxalarda bu yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, mamlakatimizning istagan katta-kichik shaxarlarida ovruvopcha zamonaviy binolar qatorida, gohida esa omuxtalashgan holda o'rta asrlar Samarkand, Buxoro, Xiva me'morchilik uslubidagi binolar qad

ko'targani va ko'rilayotganini uchratish mumkin. Bu uslub shaxarlarimizga o'ziga xos betakror, ayni chog'da milliy qiyofa baxsh etmoqda. Yoki Navruz, Mehrjon bayramlari, turli sayllar, ko'cha va maydon tomoshalari, Ramazon va Qurbon xayitlari hamda yana turli mavsumiy marosim va udumlar bugungi kunda tarix emas real voqelikka aylangani, zamonaviy yangiliklar bilan boyitilib rivojlanayotgani, ya'ni qadim ma'naviy merosimiz qayta yashayotgani bugun barchaga ayon haqiqat. Bu bayram va marosimlarning yildan-yilga ommaviylashib borayotgani an'analarning bardavomligiga shaxodatdir. Hozirgi kunda jamiyat manaviyatini yuksaltirish borasida matbuot, aynisa, televidenie odamlar bilan muloqotni izchil yo'lga o'yishi kerak. Boy tariximiz, madaniy merosimiz yurtdoshlarimizning ma'naviy mulkiga aylanishi lozim. Ammo bu ish faqat shonli sanalar munosabati bilan emas, ya'ni mavsumiy bo'lib qolmay, har doim diqqat markazimizda turishi lozim.

Bugungi kungacha mamlakatimizda milliy madaniyatimiz va sanatimiz bilan fahrlanishimiz va o'z sanatimizni jahon davlatlariga namoyon qilish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Zero, xalqaro maqom festivali, sharq taronalari,uzbek milliy kurashi bo'yicha o'tkazilgan jaxon chempionati yuqoridagi fikrimizga yorokin misol bo'la oladi. Bundan tashqari manaviyatimizni tiklash va fuqaro manaviyatini oshirish uchun teatr, kino, rassomchilik sanati, muzeyshunoslik, adabiyotshunoslik kabi soxalarda 16 yil ichida quyidagi ishlar amalga oshirildi 2015-yilning oktabrida rekonstruksiya qilingan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 2009-yilda «O'zbekiston» xalqaro forumlar saroyi, 2011-yilda Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasidan tashkil topgan Ma'rifat markazi majmuasi, 2014-yilda Farg'ona viloyatida Teatr-konsert saroyi kabi ma'naviyat maskanlari ochildi. 2001-yil O'zbek davlat akademik drama teatriga Prezident farmoni bilan «Milliy teatr» maqomi berildi. 2014-yilda Prezident «O'zbek milliy akademik drama teatrining 100 yilligini nishonlash to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq teatr ta'mirlandi va yubiley tadbiri bo'lib o'tdi. Mustaqillik yillari musiqa san'atini

akademik, an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarida rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida ta'limiga ham e'tibor berildi. 2002-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi. Birtinchi Prezidentning qarori bilan qabul qilingan Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ham muhim o'rin tutib, uning doirasida 2009–2014-yillarda hududlarda 278 ta musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi, ular 30 mingdan ortiq yangi musiqa asboblari, 61 ming nusxada o'quv qo'llanma, milliy va jahon musiqasi notalari bilan ta'minlandi. Tasviriy san'at uchun mustaqillik keng imkoniyatlar yaratib berdi. Avvalo, 1997-yilda O'zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiya tashkil etildi. 2002-yili Toshkent foto uyi, 2004-yili O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, 2005-yili O'zbek liboslari galereyasi, 2006-yili Madaniyat va san'at ko'rgazmasi ish boshladi. Mustaqillik yillarida milliy kino san'atini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki davrdagi moliyaviy qo'llabquvvatlashlar 2004-yili «O'zbekkino» milliy agentligi tashkil etilgandan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. 2005-yildan boshlab davlat tomonidan yillik ishlab chiqarish hajmlarining istiqbollik ko'rsatkichlari belgilandi (15 ta to'la metrajli badiiy kinofilm, 20 ta hujjatli va ilmiy-ommabop, 10 ta multiplikatsion kinofilm va 60 soatlik ma'naviy-ma'rifiy, o'quvslubiy videofilmlar). Adabiyotga e'tibor madaniyatning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash borasida 2010-yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida «Ijod» fondi tashkil etilib, 2011-yildan yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari davlat hisobidan chop qilina boshlandi. 2002-yili Qatag'on qurbonlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi – Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshladi. Yoshlar ma'naviyatida Muzeylarning ahamiyati hisobga olinib 2014-yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har yili 2-8 sentabr kunlari «Muzeylar haftaligi»ni tashkil etish belgilandi.

Hozirda ma'naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan albatta ko'z yumib bo'lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma'naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko'rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz. Xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma'naviyat bor. Barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana shunday pok niyat, buyuk ishonch mujassam. Aniq masad yo'lidagi bunyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan xozirgi kunda xalqimiz, millatimiz qalbidagi ana shu ishonch yanada mustahkamlanmoqda. Tarihan ajdotlarimiz tomonidan shakllangan boy merosimiz bo'lmish manaviyatimizni o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va shuuriga singdirish har birimizning sharaflari uchun. Umuman olganda, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish mamlakatimiz va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yunalishi deb belgilangan ekan, istiqlol yillarida amalga oshirilgan jaxonshumul ishlar uzluksizlikda davom etadi va bu, o'z navbatida, ma'naviy taraqqiyotimizni yangi sifat bosqichiga ko'taradi, deb aytishimiz uchun to'la asos buladi.

Ma'naviyat va ma'rifat yo'lida mehnat qilayotgan alloma va adiblarning vazifasi shundan iboratki, sizlar yaratgan tarixiy asarlar xalqimiz ichiga, vatandoshlarimiz yuragiga yanada teranroq kirib borsin. Yoshlarni buyuk tariximizga muhabbat ruhida tarbiyalashga o'z hissamizni qo'shaylik. Ko'pni ko'rgan keksalarning duosini olaylik. Bu borada matbuot, ayniqsa, televidenie odamlar bilan muloqotni izchil yo'lga qo'yishi kerak. Boy tariximiz, madaniy merosimiz yurtdoshlarimizning ma'naviy mulkiga aylanishi lozim. Bu ish faqat shonli sanalar munosabati bilan emas, ya'ni mavsumiy bo'lib qolmay, har doim diqqat markazimizda turishi lozim. Ilgari bizga bu boradagi ishlar yuzasidan ko'rsatmalar berilardi. Shuni dildan his etishimiz kerakki, endi u markaz yo'q. Shunday ekan, .



Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi kim o'z joyida yuqoridan ko'rsatma kutmasdan, zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishi kerak Bugungi kunda ma'naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan albatta ko'z yumib bo'lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma'naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko'rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz. Chunki xalq – bamisoli ulug' va sharaflil yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo'ldan chalg'itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma'naviyat bor. Barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana shunday pok niyat, buyuk ishonch mujassam. Aniq maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan hozirgi kunda xalqimiz, millatimiz qalbidagi ana shu ishonch yanada mustahkamlanmoqda. Shu bois men shonli tarixiga sadoqat bilan qarab, bugungi ozod hayotini qadrlab, o'z kelajagiga katta umid bilan intilayotgan xalqimizning donishmandligi va matonati, uning iymon-e'tiqodi, mustahkam irodasi va yuksak ma'naviy ruhi doimo barqaror yashaydi, deb ishonaman.<sup>19</sup>

Ma'naviyat sohasida yangi asrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishni aniqlab, o'zimizga reja qilib belgilab olar ekanmiz bir narsaga alohida ahamiyat berish kerak: bu maqsad va g'oyalar xalq ongiga singadimi, jamoatchilik ularni qo'llab-quvvatlaydimi yoki yo'qmi - hamma gap mana shunda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviyat ma'rifat masalasidagi harakatlari shunday hususiyatga egaki, bu boradagi fikrlar faqatgina g'oya holda qog'ozda qolib ketmasligi, quruq gap, quruq shior bo'lib qolmasligi lozim. Ularni amalga oshirish

---

<sup>19</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B. 34.

uchun bizga jonkuyar, beva-bechoraga achinadigan, o‘z rizqini muhtoj kimsa bilan baham ko‘rishga qodir, haqiqat va xalq manfaati yo‘lida kurashlarga hamisha tayyor, mard, fidokor insonlar kerak.

Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish natijasida olgan bilim va xulosalarimni umumlashtirib quyidagilarni taklif etaman:

- O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov asarlaridagi madaniyat, ma‘naviyat va ma‘rifat tushunchalarining mazmun mohiyatini muntazam o‘qitib borish lozim.

- Ta‘lim tizimida “Prezident asarlari bilimdoni” tanlovini o‘tkazish jarayonida madaniy ma‘rifiy sohaga bo‘lgan munosabatni yoritish malasiga alohida e‘tibor qaratish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridagi madaniyat va ma‘rifat masalasiga bo‘lgan munosabatni aholi o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha mahalliy targ‘ibot guruhlarini shakllantirish va bu jarayonga nodavlat notijorat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarini jalb etish.

O‘zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko‘ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvi, shuningdek, ilmiy-tenikaviy kadrlar bilan taminganlikni, turmush tartibi va tarzining chuqur ananaviylikni o‘zida mujassamlashtirgan. Shu bois u Sharq bilan G‘arb muloqotida vositachi, ko‘plab sivilizatsiyalar manaviy aloqasining ramzi ham bo‘lishi mumkin. Ma‘naviy qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini anglatadi.

Jamiyatning ma‘naviy yangilanishi— davlat va jamiyatdagi erkinlashtirishning bosh omili, kafolatidir. Bu davr talabi. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, xayotimizning boshqa soxalaridagi axvol, amalga oshirilayotgan isloxotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an‘analarimizning saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji bilan uzviy boglikdir. Shuning uchun ham ushbu sardan kelib chiqib, respublikamizda manaviyat sohasi jamiyatning boshqa sohalar bilan bir qatorda va

keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Buning natijalari ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida o'z tasdigini topmoqda.

## **II-BOB. " O'ZBEKISTON XXI ASRGA INTILMOQDA " ASARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI VA METODIKASI**

### **2.1. Mamlakatni izchil va barqaror rivojlantirishda asarning tutgan o'рни va ahamiyati**

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asrida keltirilgan vazifarning ijrosi asar yozilgan vaqtdan hozirgi kungacha jamiyat hayotida amalga oshirilib kelayotgani va bu ustuvor yo'nalishlar qanchalik tog'ri ekanining hayotning barcha soxalarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishini tashkil etmoqda. Ma'lumki, insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi darajasi bilan baholanadi. Ma'rifat - ma'naviyatga olib keladigan yo'l. Bugun qilayotgan yaxshi ishlarimiz kelgusi avlod barkamolligi uchun xizmat qilishi shubhasiz. Bugun qanday ko'chat eksak, ertaga shunday meva olamiz. Yosh avlodni el-yurtga, Vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'рни bor. Tahlil shuni ko'rsatadiki, viloyatda xalq ta'limi tizimida ta'lim-tarbiya va kasbiy tayyorgarlik o'rtasidagi o'zaro aloqalar yaxshi emas. Ta'lim maskanlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga, ta'lim-tarbiya sohasiga, o'qituvchilar, tarbiyachilar tarkibiga yetarli e'tibor berilmayapti. Agarki, ma'naviyatning ahamiyatini, uning hayotimizdagi o'rnini joyiga qo'yimoqchi bo'lsak, avvalambor, mana shu masalalarni echmasdan ilojimiz yo'q.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shartsharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda 65 milliard so'm

mablag‘ sarf qilindi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o‘z ichiga. olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta‘lim tizimi takomillashtirilib borildi. 2009-yildan boshlab, yurtimizda to‘liq 12 yillik majburiy ta‘lim joriy etildi. 2017-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya‘ni 12-yillik majburiy ta‘limdan 11-yillik ta‘limga qaytildi.

I.Karimov mamlakatimiz kelajagi uchun Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturning amalga oshirilishi juda muhim ahamiyatga egaligini o‘z asarida takidlab o‘tgan va bu dasturni bajarish uchun javobgar kishilar oldiga quyidagi vazifalarni belgilab qo‘ygan:

***Birinchi.*** Yangi o‘quv yili boshlangunga qadar ta‘lim tizimida mazkur tajriba qanday o‘tayotganini va uning dastlabki natijalarini chuqur tahlil etib, ta‘lim andozalari, o‘quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan olda, ya‘ni yangi avlodni kamol toptirishga aratilgan zarur tuzatishlar kiritish darkor.

***Ikkinchi.*** Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta‘minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur.

***Uchinchi.*** Yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e‘tibor berish lozim. Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs-fuqaroni kamol toptirish ertaga sinfxonalar va auditoriyalarda kimlar dars va saboq berishiga bog‘liq. Umuman, islohot yillarida birgina o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi uchun 86 ta yangi muhandislik-pedagogik yo‘nalishlar bo‘yicha 50 mingdan ortiq pedagog kadrlar tayyorlash lozim bo‘ladi.

***To‘rtinchi.*** Ixtisoslashgan qurilish trestlari tuzishni nihoyasiga yetkazish, barcha zarur loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va Dasturda belgilangan akademik listeylar va kasb-unar kollejlarni foydalanishga topshirish ishlarini to‘la hajmda bajarish lozim. Bu to‘qqizinchi sinflarni bitiruvchilarni o‘rta maxsus, kasb-unar ta‘limi

maktablariga to'la qamrab olishni ta'minlaydi. Yana bir bor ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi: amalga oshirilayotgan barcha islootlarning taqdiri shu masalaga, ya'ni kadrlar tayyorlashga chambarchas bog'liqligini biz aniq va ravshan anglab olishimiz lozim.<sup>20</sup>

O'zini shu mamlakatning haqiqiy vatanparvari deb biladigan har bir kishi bu Dasturni amalga oshirishga o'z mehnatini, o'z ulushini o'shadi, deb ishonamiz. Dasturda insonning ko'pqirrali manfaatlariga javob beruvchi tadbirlar belgilangan. Asosiy gap dasturda belgilangan choratadbirlarning quruq gapga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslikda. Mazkur dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatimizning har bir fuqaro, har bir shahri, har bir qishlog'i hayotida o'z ifodasini topishi o'ta muhimdir. Mazkur tadbirlar yangi tashabbuslar tug'ilishiga, yangi imkoniyatlar ochilishiga olib kelishi, odamlarimizga bunyodkorlik kayfiyati bag'ishlashi bilan g'oyat muhimdir. Bugungi barcha sa'y-harakatlarimiz nafaqat zamondoshlarimiz, balki kelajak avlodlarimiz baxt-saodati uchun ham xizmat qilishini odamlar his etishi ayniqsa muhim. Bu dasturning mazmun-mohiyati bandma-band, bobma-bob, barcha tafsilotlari bilan joylardagi ijrochilarga yetkazilishi, uning ijrosi muntazam nazorat qilib borilishi zarur.

Universitet diplomi darajasi va obro'si oshirildi. Buning uchun o'quv muassasalari moddiy bazasini mustahkamlanmoqda, ularni zamonaviy o'quv va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, zarur o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, o'quvning turli shakllarini kengaytirish, o'qituvchilarning mehnatga rabatini kuchaytirishga katta etibor berilmoqda. Bugungi kun yoshlar bilan muntazam, qunt bilan ish olib borish, iste'dodli bolalarni saralab, ularga chet elning yaxshi o'quv markazlarida professional bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni taqozo etyapti. Bir so'z bilan aytganda, biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berilmoqda. Birinchi Prezidentning 2004-yildagi farmoni asosida 2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital ta'mirlandi; aniq va tabiiy fanlardan o'quv

---

<sup>20</sup> "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997-yil 29- avgust. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi.

laboratoriyalar zarur uskunalari bilan jihozlandi. 2017-yil 30-sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Prezidentning 2015-yildagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan 15 yetakchi oliy ta'lim muassasalari – tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilandi.

Demokratik va bozor islohotlari hamda yangilanish yo'lida qilayotgan barcha ishlarimiz xalqimiz manfaatlarini ko'zlab, ularning farovonligini oshirishga qaratilishi lozimligini qayta-qayta ta'kidlash kerak. Ushbu dasturdagi vazifalarning ijrosini bajarish usullari "O'zbekiston XXI asrga intilmoda" asarida keng yoritilib o'tilgan. Asarda mamlakatimizning bank-moliya tizimini, bozor infratuzilmasini, tadbirkorlar faoliyatini umuman iqtisodiy soxasini ham rivojlantirish borasida quyidagi masalalar yoritilib o'tilgan:

**Birinchi**dan, erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish zarur. Kichik va o'rta biznesni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish lozim. Tadbirkorlik tuzilmalarining moliya, bank va bosha bozor tuzilmalari bilan munosabatlarini mustakamlash, eng muimi, kredit olish yo'lida mavjud to'siqlarni olib tashlash lozim.

**Ikkinchi**dan, iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'lidir. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

**Uchinchi**dan, iqtisodiyotni erkinlashtirish to'g'risida so'z yuritganda, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, moliya va bank tizimi faoliyatini takomillashtirish zarur. Bank tizimini isloh qilishni jadallashtirish, fond bozorini tashkiliy jihatdan mustakamlash, xalqaro yarmarka savdosi bilan shug'ullanadigan respublika markazini barpo etishni nihoyasiga yetkazish, tashkil etilgan ulgurji bozorlar faoliyatini yaxshilash zarur. Xullas, bozor infratuzilmasini barcha darajada izchillik

bilan shakllantirish amaliy va qonunchilik faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i kerak.

**To'rtinchidan**, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning butun tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Biz tashqi iqtisodiy faoliyatning jaxonda qabul qilingan ma'rifiy shakllariga tezroq o'tishimiz, Butun dunyo savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga erishmog'imiz darkor. Shu bilan bir vatda biz iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyani yanada kengroq jalb etish lozim.

**Beshinchidan**, valyuta tizimi va bozorini erkinlashtirish zarur. Birjadan tashari bozorni kengaytirish va rivojlantirish, tijoriy banklarning ro'li va mas'uliyatini oshirish hisobidan, 2000 yildan boshlab milliy valyutamizni erkin muomaladagi valyutaga to'liq almashtirish (konvertastiya ilish) masalasini yechish. Bu tadbir mamlakatimizga kirib kelayotgan investistiyalar hajmini oshirish garovi va kafolatidir.

**Oltinchidan**, xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishni kuchaytirish, kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investistiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish zarur.

**Yettinchidan**, iqtisodiyotni erkinlashtirish, avvalo, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarining xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish bilan bog'liq. Iqtisodiyotni erkinlashtirish-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatini oshirish demakdir.<sup>21</sup>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning natijasi tobora yaqqolroq ko'rinmoqda. Buni hamdo'stlik mamlakatlari bilan savdo-sotiq ko'rsatkichlari ham tasdiqlaydi. O'zbekiston ularning barchasi bilan ijobiy savdoga ega. Biz barcha xorijiy davlatlar bilan ma'rifiy savdoni yo'lga qo'yganmiz. Bu barcha hisob-kitoblar erkin almashtiriladigan valyutada amalga oshiriladi, demakdir. Bozor iqtisodiyotiga har kim o'z yo'lidan borayotir. Bu gap inflatsiyani jilovlash usullariga ham tegishli. O'zbekistonda bir necha oylab maosh bermay qo'yish, shu yo'l bilan

---

<sup>21</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. 32-bet.

inflyastiyani sun'iy ravishda ushlab turish holatlari yo'q. Aksincha, bizning barcha harakatlarimiz, o'tkazayotgan islohotlarimiz xalqimizning turmush farovonligini oshirishga, vatanimiz ravnaqini ta'minlashga, buyuk kelajagimizni bunyod etishga qaratilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotini qayta tiklash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun xorijiy sarmoyaga muhtoj. Bizga infrastrukturani, shu jumladan ijtimoiy sohani ham, qishloq xo'jaligini ham rivojlantirish hamda ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot miqdorini oshirish uchun texnik va moliyaviy ko'mak zarur. Xullas, biz bir daqiqalik muvaffaqiyatga intilayotganimiz yo'q, aksincha uzoq muddatli samara beradigan loyihalarni afzal ko'ramiz. Bunday loyihalar tijorat jozibasini bilan yirik sarmoyadorlarni o'ziga jalb etishiga ishonchimiz komil. Teng va o'zaro hamkorlik uchun O'zbekistonning eshiklari doimo ochiq. Chet mamlakatlar bilan hamkorlikda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjudlarini qayta jihozlash va rivojlantirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Aholining 80 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Gazlashtirish esa istiqlol yillarida ikki baravar ko'paydi, ya'ni 75 foizga yetdi. Hatto eng chekka, toli Shohimardon qishloigiga ham tabiiy gaz etib bordi. Shahar va tuman markazlarida sharqona usulda bozor, do'kon va maishiy xizmat shoxobchalari qurilib, obodonchilikka katta e'tibor berildi. Tarkibiy siljishlar yulidan borib respublikada energetika va oziq-ovqat mustakilligini ta'minlovchi tarmoqdarni jadal rivojlantirish xamda mineral va kishloq xo'jalik xom ashyo resurslaridan tayyor raqobatbatdosh maxsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan o'zaro bog'lik tarmoqlar va korxonalar imkoniyatini oshirishdan iborat vazifalar ham belgilandi. Shuningdek, respublikaning an'anaviy ixtisosdagi ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan qayta qurollantirish yo'li bilan ularni rivojlantirish nazarda tutildi. Natijada o'tgan vaqt davomida respublikamizda iqtisodiyotdagi tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish borasida quyidagilarga erishildi:

- respublikaning yonilgi-energetika resurslariga bulgan extiyoji o'zi xisobidan to'la ta'minland;



- mamlakatning o'z g'alla resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ortib bordi, g'alla mustaqilligi qaror topdi;

- ishlab chiqarishda sanoat maxsulotlari xissasi oshdi;

- sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, chunonchi mashinasozlik, yokilgi-energetika, kimyo va engil sanoat xissasi ortib bordi;

- qishlok xo'jalik tarmog'ini yangi texnika bilan jihozlash, qishlok xo'jaligi ishlab chiqarishini xamda u bilan bog'lik boshqa soxalarni takomillashtirildi;

- respublika iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasi shakllantirildi;

- iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlandi va yanada rivojlantirildi;

- yengil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlandi va zamonaviylashtirildi;

- yuqori texnologiyani va ilm talab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirildi.

Ushbu chuqur tarkibiy o'zgartirish dasturlarini 2005-2010 yillarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgani O'zbekiston Respublikasining barkaror iqtisodiy o'sishini ta'minladi. Mamlakatimizda vujudga kelayotgan makroiqtisodiy vaziyatga amda iqtisodiyotning amalda yuksalishiga asoslanib, biz, eng

***Birinchi***, yani besh yil ichida ish haqqining eng kam midorini 3,5 baravar oshirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ygan edik. Ish haqqi eng kam midorining bunday oshirilishi iqtisodiy yuksalishning boshqa omillari bilan qo'shilib, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadni 1,8-2,0 baravar oshirishga imkon berdi.

***Ikkinchidan***, aholi daromadlarini oshirish bilan bir qatorda ularning xarid quvvatini ham oshirildi. Buning uchun pulning qadrsizlanishiga qarshi qaratilgan qat'iy choralarni ko'rildi va yaqin besh yil ichida pulning qadrsizlanish darajasini yiliga 6-8 foiz kamayishiga erishildi. Asosan mamlakatimizda ishlab chiqarishni ko'paytirish xisobiga ichki iste'mol bozorini kundalik zarur tovarlar bilan muntazam

va ishonchli tarzda to'ldirish choratadbirlarini amalga oshirildi. Shu maqsadda sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida iste'mol tovarlarining ulushini yaqin besh yil ichida 50 foizga yetkazildi.

*Uchinchidan*, aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustakamlash, uning aniq toifadagi kishilarga aratilishini kuchaytirish lozim bo'ldi. Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hajmi va midorini ko'paytirish bilan bir vaqtda haqiqatda yordamga muttoj bo'lgan kishilar va oilalargina ijtimoiy yordam olishirildi. To'plangan ijobiy tajribani hisobga olib fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash va himoyalash tajribasini yanada keng joriy etildi. Eng muhimi esa, shu maqsadlar uchun ajratilayotgan katta mablag'dan samarali foydalanishni ta'minlay oldik. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida yolg'iz qariyalar, pensionerlar va nogironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida e'tibor berish lozim bo'ldi. Hokimliklar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot organlari yaqin besh yil ichida yolg'iz pensionerlar va nogironlarning uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularni dori-darmonlar va maxsus muolaja bilan ta'minlash, qariyalar va nogironlar internatlarining moddiy-texnika bazasini mustakamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqildi.

*To'rtinchidan*, aslida, bu vazifani birinchi qilib qo'yish ham mumkin edi, mehnat bozorini shakllantirish, yangi ish joylarini barpo etish va aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash bo'yicha faol siyosat o'tkazildi. Bu borada ishsizlikning oldini olish, mehnatga yaroqli har bir fuqaro o'z mehnatidan daromad topib, o'z ehtiyojlarini qondirishi, o'z turmush darajasini, oilasi va bolalari farovonligini oshirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilandi. Vazirlar Mahkamasi barcha darajadagi hokimliklar bilan birgalikda 2000-2005 yillarda avvalo qishloq joylarda, islohotlar davomida qishloq xo'jaligidan bo'shab qolayotgan ortiqcha ishchi kuchlarini jalb etishni hisobga olgan holda moliyaviy manbalar bilan mustahkamlangan yangi ish joylarini barpo etish Dasturini ishlab chiqdilar. Shu bilan bir vatda joylarda ishsiz sifatida ro'yxatga

olingan kishilarni hududlarni obodonlashtirish, yo'llar, ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirildi.

**Beshinchidan**, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurishga doir haq to'lanadigan jamoatchilik ishlariga keng jalb etish amalga oshirildi. Ijtimoiy infratuzilmani, avvalo, qishloq joylarda yanada rivojlantirish, aholini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta'minlash yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturini bajarildi. 2005 yilga qadar qishloq aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash 85 foizga, tabiiy gaz bilan ta'minlash 82 foizga yetkazildi. Buning uchun 1999-2005 yillarda qishloq joylarda 30 ming kilometrqa yaqin gaz tarmoqlarini, 18 ming kilometr suv quvuri tarmolarini ishga tushirishga erishildi. Xalq farovonligini barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish qilib belgilab, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning farovonligi uchun amalga oshiriladi, degan asosiy qoidamizni yana bir bor tasdiqlagan bo'lamiz.

Oldimizda turgan masadlarga erishish uchun itisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish o'ta muhim ahamiyatga ega. **Birinchi**dan, tarkibiy o'zgarishlarni barpo etish siyosatida avvalgidek qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutadi. Bu soha ulkan imkoniyatlarga ega bo'lib, aholini oziq-ovqat masulotlari bilan, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi qishloq xo'jaligida mehnat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, qishloq xo'jalik tarmog'ini yangi texnika bilan jihozlash, dehqon mehnati va umuman qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini amda u bilan bog'liq boshqa sohalarni takomillashtirish va bevosita iqtisodiy samarani oshirish masalalari g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyatga ham molikdir. **Ikkinchi**dan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari - neft, gaz, energetika, oltin qazib olish va kimyo sanoatini, qora va rangli metallurgiya, qurilish materiallari sanoatini texnik qayta jihozlash va yanada rivojlantirish hamda ana shu asosda mamlakatning boy tabiiy va mineral-xom ashyo resurslaridan to'la va samarali foydalanishni ta'minlash. **Uchinchi**dan, yengil sanoatning paxta tozalash, to'qimachilik, ipak yigirish sohasini va bosha tarmolarini zamonaviylashtirish, tugallangan texnologik jarayonni ta'minlovchi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish

va dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan masulotlar ishlab chiqarish. **To'rtinchidan**, zamonaviy, yuksak samarali qishlo xo'jaligi texnikasi va qishloq xo'jaligi masulotlarini qayta ishlovchi uskunalarni chiqarish bo'yicha mavjud korxonalarini texnik qayta jihozlash va xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish. **Beshinchidan**, mamlakatimizning boy ilmiy-texnikaviy salohiyatidan keng foydalangan holda, yuksak texnologiya va fan yutuqlariga asoslangan ishlab chiqarish sohalari - avtomobilsozlik, samalyotsozlik, mikrobiologiya, elektrotexnika va elektronika sanoatlarini, telekommunikatsiya va zamonaviy axborot texnologiya vositalarini tez sur'atlarda rivojlantirish. **Oltinchidan**, to'laqonli va uyg'unlashgan sanoat siyosati yuritishni, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosadigan ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini keng rivojlantirishni ta'minlash.<sup>22</sup>

“Avval iqtisod, keyin siyosat” –maqolida aytilganidek yangi asr arfasida mamlakatni rivojlantirishning yuqorida keltirilgan shunday iqtisodiy asoslari yaratildiki, bundan ko'zlangan bosh masad fuqarolarning moddiy turmush darajasini yaxshilash bo'lib qoldi. 2000-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichida iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasining pasayishi hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati kafolatlarini kuchaytirish va ularga nazorat qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvidan himoya qilish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi. 2002- yildan boshlab import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yildagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi farmonida iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat

---

<sup>22</sup> Abdulqosimov H.P., Vahobov A.V., Rahimova D.N., Norboev B.I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. – T.: TDIU, 2001. –B. 37.

banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari va bankrot korxonalarini tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri balansiga berish mexanizmi tavsiya etildi. 2001-yildan boshlab xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa, kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirildi. 2000-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonun kichik va xususiy tadbirkorlikning rivoji uchun yanada keng imkoniyatlarni ochib berdi. Mazkur bosqichda xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va uni kafolatlashga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, ushbu qonun bilan tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi soddalashtirildi, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar taqdim etildi, tadbirkorlarning imtiyozli kredit olish uchun huquqlari mustahkamlandi. 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan kichik biznes sub'yektlarining tijorat banklari kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yanada pasaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish choralari to'g'risida»gi va «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturi to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalash hamda mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Birinchi Prezidentimizning 2008-yil «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoni asosida «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi bunyod etildi. 2013-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi va «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. Mazkur farmonlar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va

mahalliy investitsiyalarni jalb etish, bu borada qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Iqtisodiy zonalar kiritiladigan investitsiya miqdoridan kelib chiqqan holda 3 yildan 7 yilgacha muddatga bojxona va soliq to'lovlaridan ozod etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil oktabrdagi «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari asosida, bugungi kunda (2018) mamlakatimizda 10 hududda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarida 62 loyiha amalga oshirilgan, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan. Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonliq-farm», «Parkent-farm» singari yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Prezidentning 2016-yildagi farmoniga ko'ra «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Angren» va «Jizzax» maxsus industrial nomini birxillashtirish maqsadida ular bundan buyon «Navoiy», «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalar deb yuritiladigan bo'ldi 2008-yildan keyingi davrda ham mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham barqaror rivojlandi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009-yilda 7 foizga, keyinchalik ushbu ko'rsatkichni 5 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratdi.

Xorijiy, jismoniy va huquqiy shaxslarga davlat mulkini xususiylashtirish jarayoniga kirish uchun bemaolol yo'l ochib qo'yilgan. Ko'chmas mulkni sotish, xususiylashtirilgan korxonalarining akstiyalarini sotib olish ham shunga kiradi. Ularga

turarjoy, savdo ob'ektlari va xizmat sohasi korxonalarini xususiylashtirish paytida turarjoy va xo'jalik binolari qurilayotgan yerlarni xususiy mulk qilib sotib olish huquqi berilgan. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, korxonalarnı akstionerlashtirish, qimmatli qoozlar bozori va fond faoliyatini rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rabatlantirish, mulkdorlar toifasini shakllantirishga doir choratadbirlar amalga oshirildi. Milliy daromadning 68,9 foizi, sanoat mahsulotining 53,4 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining qariyb 98 foizi davlatga qarashli bo'lmagan sektor hissasiga to'g'ri keldi. Barcha ishlovchilarning 70 foizi ana shu tarmoqda mehnat qildi. Sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham, iqtisodiyotning barcha sohalarida mulk haqiqiy egasi qo'liga o'tdi. Odamlar ongiga mulkka egalik hissini singdirildi. Barcha fond birjalari, qimmatli qoozlar bozorlarining faoliyati odamlar ongida egalik hissini tarbiyalashga xizmat qilishi darkor. Biz aholining keskin tabaqalashuviga yo'l qo'ymadik. Ya'ni, bizda eng boy va o'ta kambaallar bo'lmadi, balki o'rtacha mulkdorlar sinfi qaror topdi. Bu sinf iqtisodiyotda, boringki, mamlakat hayotida muhim o'rin tutdi, asosiy tayanch bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlar mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2005-yil – «Sihat-salomatlik yili»da 2 mingga yaqin yolg'iz nuroniyning uy-joyi ta'mirdan chiqarildi, kam ta'minlangan oilalar va keksa fuqarolarga moddiy yordamlar ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yildagi «2007–2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, «Nuroniy» jamg'armasi hisobidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolash maskanlariga, «Saxovat » va «Muruvvat» uylariga dori-darmon vositalari yetkazib berildi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda nuroniylar to'liq dispanser ko'rigidan o'tkazildi. Mamlakatimizda 2007-yilning «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lo

qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, uning turmush va farovonlik darajasini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi. Shu ma'noda, 2007-yil ehtiyojmand oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rioya etishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar yanadatakomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan boshlangan qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari bugun qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura asosida tubdan o'zgartirishga xizmat qilyapti. Xususan, 2009–2016- yillarda qishloq joylarda 69.557 ta shinam namunaviy uy-joy bunyod etildi. Pirovardida 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

Biz mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ular etarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishiga erishmog'imiz lozim. Buning uchun ularning daromadlarini shakllantiruvchi manbalarni muntazam kengaytirib borish zarur bo'ladi. Bugungi kundayoq soliq to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan barcha mahalliy soliqlar va yig'imlargina emas, umumdavlat soliqlarining anchagina qismi ham mahalliy byudjetlarga yo'naltirilmoqda. Natijada davlat byudjeti barcha daromadlarining 62 foizidan ko'proq qismi mahalliy byudjetlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Eng muhimi esa, barcha byudjet xarajatlarining 58 foizidan ko'prog'i mahalliy byudjetlar orqali amalga oshirilmoqda. Jamoat idorasi bo'lmish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari resurslarini mustahkamlashda shu organlar orqali aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga sarflanayotgan kattamiqdordagi byudjet mablag'idan tashqari, tadbirkorlikni faolrivojlantirish, kichik korxonalar va aholiga xizmat ko'rsatish sohasi inshootlarini barpo etish hisobidan tushadigan mablag'ni ko'paytirishni ham hisobga olish lozim. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish



lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirish darkor. "Kuchli davlatdan- kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday yondashuv fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa fuqarolik jamiyati tamoyillariga to'la mos keladi.

Sizlarning e'tiboringizni qurolli Kuchlarni, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlarni yagona davlat siyosati asosida bosqichma-bosqich, chuqur isloh qilish masalalariga qaratmoqchiman. Armiyani isloh qilishning mohiyati nimalardan iborat? **Birinchi.** Mudofaa sohasidagi mavjud va ehtimol tutilgan taqdidlarni tahlil etish bizdan mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini samarali va ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan, tezkor, jangovar qobiliyati yuksak, har jihatdan yaxshi ta'minlangan qurolli Kuchlarni shakllantirishni taqozo etadi. **Ikkinchi.** Ilg'or mamlakatlar va armiyalarning tajribalarini o'rganish asosida qurolli Kuchlarimizni tashkil etish tarkibining o'zini quyi bo'g'inlardan tortib yuqori bosichlargacha va boshqarishni tubdan qayta ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yomodamiz. **Uchinchi.** Islohot harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, professional tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning butun tizimini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Bu jangchilarimizda Vatanga muabbat va sadoatni, yuksak ma'naviy fazilatlar va mustahkam irodani tarbiyalashga, professionalizmni, a'lo jangovar tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilishi lozim. **To'rtinchi.** Qurolli Kuchlarni harbiy-texnikaviy jihatdan qayta qurollantirish va yangilash kompleks dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Armiyamiz zarur texnika va qurol-yarolar bilan yetarli midorda ta'minlanishi darkor.<sup>23</sup> Bu armiya oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning eng muhim shartlaridan biridir. Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida ham tub tarkibiy islohotlarni amalga oshirish belgilangan. Ichki qo'shinlar vazifalari, tuzilishi qayta ko'rib chiqildi. Ularni tashkiliy, moddiy-

---

<sup>23</sup>Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.. -Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B. 44.

texnikaviy jihatdan ancha mustakamlash tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yo'l harakati xavfsizligini, jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta'minlaydigan bo'linmalarni isloh qilish ustida ishlamoqdamiz. Islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining fuqarolarni va jamiyatni terrorchilik, qo'poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko'rinishlaridan ishonchli imoya qilishni ta'minlaydigan tizim shakllanishi zarur. Ichki ishlar organlari shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garovi bo'lishi lozim.

Tan olishimiz kerakki, qishloqda o'tkazilayotgan islohotlar yo'lida muayyan to'siqlar, bu ishlarni rivojlantirish borasida kamchiliklar mavjud. Xususan, mulk shaklini o'zgartirgan, dehqon (fermer) xo'jaliklari, xususiylashtirilgan fermalarga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash borasida izchillik yetishmayapti. Ularga yetarli miqdorda yer ajratish, aylanma mablag'larini hosil qilish uchun kredit berish, texnika va o'g'it bilan ta'minlash, yetishtirgan mahsulotlarini sotish kabi masalalarda vazirliklar va boshqa tashkilotlar hamda hokimliklar yaqindan yordam berishlari kerak. Qishloq haqida qayg'urish barchaning ishi bo'lmog'i zarur. Qishloqda islohotlarni chuqurlashtirish uchun nimalarga e'tibor berish, qanday to'siqlarni bartaraf etish kerak, deya savol qo'ydi Birinchi Prezidentimiz va bunday dedi<sup>24</sup>:

Birinchiidan, davlat tasarrufidan chiqarilgan mulk haqiqiy egasining, ya'ni dehqon yoki chorvadorning qo'lga tushishi zarur. Ochig'ini aytish kerakki, xususiylashtirishning dastlabki bosqichlarida bu borada ayrim joylarda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yildi, natijada dehqonchilik yoki chorvachilikdan yiroq odamlar, ayrim boyvachchalar mulk egasi bo'lib qoldi. Bu kamchiliklarni zudlik bilan tuzatish, kerak bo'lsa, qishloqda islohotlarni tartibga soluvchi hujjatlarga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilarini ishlab chiqarish lozim. Toki, hech narsa islohotlarni amalga oshirishga monelik qilolmasin. Dehqon (fermer) xo'jaliklari, xususiylashtirilgan firmalar oyoqqa turib olishi uchun davlat ularga har tomonlama yordam berishi, himoya qilish kerak. Barchaga ayonki, xo'jalik muvaffaqiyatli ish yuritishi uchun

---

<sup>24</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. -B.30.

aylanma mabla zarur. Dastlabki bosqichda buni davlatdan kredit olmasdan shakllantirib bo'lmaydi. Respublika Moliya vazirligi, Markaziy bank rahbarlari Qishloq xo'jalik va suv xo'jaligi vazirligi, boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda bu masalani hal etishlari lozim.

Asarda keltirilgan islohotlarni qishloq xo'jaligidagi islohotlarni ham yangi asr boshlaridan bosqichma-bosqich amalga oshirish boshlandi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2003–2009-yil-larda 801,5 ming AQSH dollari qiymatidagi 21 ta loyiha amalga oshirildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi birmuncha oshdi, fermer xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish imkoniyati kengaydi. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida bu sohada zamonaviy sug'orish tizimlari va energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanishga, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi. 2008–2012-yillarda mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi doirasida umumiy uzunligi 10 ming 500 kilometr dan ziyod xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi kollektor-drenaj tarmoqlarida jami 60 milliard so'mga yaqin ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. 2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yerosti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mazkur soha tarmoqlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. 2010-yili respublika rahbarining tashabbusi bilan Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelingan, intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana olma, nok, olxo'ri, gilos, shaftoli ko'chatlari, asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarining fermer xo'jaliklari maydonlariga ekildi. Bunday bog'larni yildan yilga kengaytirish, ularni dehqon fermer xo'jaliklarida barpo etish maqsadida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. 2017-yil holatiga ko'ra,

Respublikamiz hududida jami 5,5 ming gektardan ortiq maydonda mana shunday intensiv bog'lar barpo qilingan. Hozirda yetishtirilayotgan mevalar, nafaqat qo'shni mamlakatlarga, balki Yevropa mamlakatlariga ham eksport qilinmoqda.

“Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmoq bo'lishi darkor”. Nima uchun Prezident ommaviy axborot vositalari oldiga bu vazifalarni qo'ymoqda? Chunki ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lgandagina har qanday ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va jamiyat hayoti bilan bog'liq boshqa barcha jarayonlar tug'risidagi statistika ifoda etilishi mumkin. Binobarin, davlat va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealardan o'z vaqtida xabardor va ogoh bo'lmog'i zarur. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligini kafolatlash va shu orqali turli muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarga o'z fikrlarini erkin bildirishga kengroq yo'l ochish jamiyatni erkinlaishtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Islohotlar natijasini, ularning mazmunini xalqqa yetkazishda matbuotning ro'li katta. Biz tub yangilanishlar jarayonini qanchalik chuqur o'rgansak, qiladigan ishlarimiz shunchalik aniq bo'ladi. Matbuot esa ana shu murakkab vazifani bajarmog'i lozim. Biz ochi demokratik jamiyat qurmodamiz. Masadlarimiz, niyatlarimiz va ishlarimiz ochiq. Yashiradigan joyi yo'q. Demak, Prezident ham, vazirlar ham, hokimlar ham, oddiy fuqaro ham ochiq bahsdan, ochiq muloqotdan o'zini tortmasligi shart. Bizni saylagan odamlar hokimiyat faoliyatidan xabardor bo'lishi va unga baho berishida matbuot vositachi ro'lini bajarishi lozim. Lekin matbuot erkinligi, matbuot ta'sir kuchi haqida biz juda ko'p gapiramizu, ammo amalda natija ko'rinmayapti. Matbuot, aynisa, viloyatlar matbuoti hamon yuzaki bo'lib qolmoda. Matbuotimiz islohotlar, hayotimizning yangilanishi yo'lga to'siq bo'lib turgan to'rachilik kayfiyatini, umuman, hayotimizda yechilmagan ko'pdan-ko'p muammolarni ochiq-oydin yoritishda zaif bo'lib qolmoda. Albatta, bu hol uchun faqat matbuot organlarining o'zini ayblash ham adolatdan emas. Muxbirlar axborot olish masalasida juda katta to'siqlarga duch kelayotgani, axborot berish burchi, vazifasi bo'lmish mansabdorlarning bu muhim masalaga bepisand qarayotgani hech

kinga sir emas. Nega viloyat hokimlari, tuman hokimlari, vazirlar va boshqa mutasaddi rahbarlar matbuotdan o'zini olib qochadi? Zaifligi, tili qisq joyi bormi? Nega ochiq muloqotga chorlasangiz, duduqlanib qoladi? Yoki, ochig'ini aytadigan bo'lsak, mazmunli javob berish uchun, ya'ni oddiy xizmat burchi - vazifasini bajarish uchun qurbi, saviyasi, malakasi yetishmaydimi? Bilingki, bu masalada siyosatimiz qat'iy bo'lishi shart: bizning yashiradigan narsamiz yo'q. Siyosatimiz ochiq-oydin. Xalq bilan bamaslahat ish ko'rsak, islohotlarning borishi va yakunlaridan uni doimo xabardor qilib tursak, qiyinchiliklarni yashirmasdan xayotimizning eng og'ir jiatlarini ham ochiq oshkor etsak, bayon etsak, bundan biz aslo yutqizmaymiz, aksincha - faqat yutamiz.<sup>25</sup> Oshkoralik va ochilik bizning har qadamimizni zimdan poylab yurgan g'animlarimiz taratayotgan turli mish-mishlarga, bo'hton va uydirmalarga qarshi zarba beradi. Tirnoq ostidan kir axtarib yuradigan kimsalarga ham ish qolmaydi. Oshkoralik, fikr erkinligi kundalik hayot tarzimizga aylanishi kerak. Hayotda yutuqlar bilan bir qatorda ko'p kamchiliklarimiz ham bor. Buyuk maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan odam, jamoa, xalq xatolarini ochiq bo'yniga oladigan va bartaraf etish chorasini ko'ra biladigan darajada jasur va mard bo'lishi shart. 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili» deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Davlatimizning erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini xar tomonlama rivojlantirish siyosatini olib borishi — bu O'zbekistonning demokratik qadriyatlarni e'zozlash, ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini ta'minlash kabi o'z zimmasiga olgan xalqaro vazifalarini bajarib kelayotganligining dalilidir.

---

<sup>25</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999. - B.22.

Ma'lumki, huquqiy-demokratik davlatni barpo etish jarayonida huquq organlari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Viloyatda huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida muayyan chora-tadbirlar ko'rilmogda. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qator og'ir jinoyatlarning o'z vaqtida tezkorlik bilan ochilishi, uyushgan jinoiy guruhlarning qo'lga olinishi viloyatdagi barqaror vaziyatni mustahkamlagani shubhasiz. Afsuski, jinoyatchilik barcha turlarining ham pasayishiga erishilgan emas. Huquqni muofaza qiluvchi idoralar xodimlari tomonidan jinoyatga qo'l urish holatlari ham mavjud. Bu hollar viloyat huquqni muofaza qilish idoralari, soliq va bojxona xizmati faoliyatida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki- asarda keltirilgan, oldimizga qo'yilgan vazifalarning amalga oshuvi har bir inson manfaatiga, demokratik jamiyat qurish manfaatlariga xizmat qilishiga shubha yo'q. Ishonamizki, ularning ro'yobga chiqishi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga, dunyo bozoriga muntazam kirib borishiga, dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishiga va ishbilarmonlar doirasi vakillarini yanada jozibali va yanada o'zaro foydali asosda hamkorlik qilishiga ko'mak beradi. Eng muhimi, bu masalalarning yechimi xalqimiz turmush darajasi va farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Ochiq aytishimiz mumkin: qo'yilgan vazifalar oson emas, bular bizdan nafaqat barcha imkoniyatlarimizni ishga solishni, balki bor kuchimizni ayamay sarflashni, fuqarolik mas'uliyati va burchini namoyon etishimizni taqozo etadi. Eng muhimi, boshqaruv va xo'jalik faoliyatining barcha bo'g'inlari mana shu asrda keltirilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, o'z vazifalarini, istiqbol rejalarini va ularning bajarilishida o'z o'rinlarini aniqlab olishlari kerak. So'ng bu yo'ldan sovuqqonlik bilan ildam harakat qilish kerak.<sup>26</sup>

## **2.2. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asaridagi vazifalarni ijrosini o'rganish usullari**

---

<sup>26</sup> Rahimov I va boshqalar. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. T.: «Universitet», 2001. -B. 87.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi xar tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Hozirgi kunda rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizning talim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish hamda talim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida "Talim to'g'risida"gi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzliksiz talim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Bunda ta'lim muassasalarida ananaviy ta'lim bilan bir qatorda zamonaviy interfaol ta'lim metodlari ham keng qo'llanilmoqda.

Bu metodlarning qaysi biri mavzuni yoritishda yaxshiroq samara berishiga quyida to'htalib o'tamiz.

## XULOSA

Odamlarimizning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgarmoqda. O'tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatimiz a'zolari hayotdagi o'z o'rnini yangicha tasavvur etmoqda, o'z kuchiga ishonchi ortib bormoqda. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda. Bu yillar davomida biz erishgan eng katta va eng muhim yutuq - bu aholining faolligi oshayotgani, hayotimizni isloh etish va yangilash zarurligiga, mamlakatimizning kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonchidir. O'tgan davr mobaynida erishilgan yutuqlarning mana shu oddiy ro'yxati zamirida, avvalo o'tish davrining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish borasida amalga oshirilgan katta ishlar, buguni va kelajagini o'z qo'li bilan bunyod etayotgan millionlab vatandoshlarimizning irodasi, aql-zakovati va fidokorona mehnati yotibdi. Buni hech kim va hech qachon esdan chiqarmasligi zarur.

Tarixni hech qachon ortga qaytarib bo'lmaydi. 28 yil ichida jamiyatning o'zini yangilash va isloh qilish, o'zgarishlar ortga qaytarib bo'lmas jarayonga aylandi. Yoshidan, millatidan, dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizda istiqomat qiladigan oddiy odamlarning bu voqealarga munosabati keyingi yillarda xalqimizning o'zligini anglashi, mustaqil, erkin davlat, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish-irodasi nechog'li kuchli ekanini yana bir karra tasdiqlamoqda. O'tkazilayotgan yangilanish, rivojlanish va islohotlar yo'lida, amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarda bu asarning o'rni beqiyos ekanligi va buni xalqimiz qo'llab quvvatlayotgani hayotimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Asarda keltirilganidek- biz O'zbekiston xalqini hech narsa bilan qo'rqitib bo'lmasligiga yana bir karra ishonch hosil qildik. Chunki o'tgan davr mobaynida odamlarning o'zi, ularning tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabati mutlaqo o'zgardi. Barchaga mana shu oddiy haqiqat ayon bo'lishi kerak: o'z taqdirini o'z qo'lga olgan, tanlangan taraqqiyot va farovonlik yo'lining to'g'riligiga ishonch hosil qilgan har qaysi odam va butun bir xalq hech qachon o'z e'tiqodidan qaytmaydi. Biz yana shu narsaga ishonch hosil qildikki, O'zbekistonning taraqqiyotga intilishi, mamlakatimizda o'tkazilayotgan o'zgarishlar va islohotlar yo'li xalqaro hamjamiyat,



biz bilan hamkorlik qilayotgan xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, firmalar va banklar tomonidan astoydil qo'llab-quvvatlanmoqda. Buni jahon hamjamiyatining munosabatidan, deyarli barcha xorijiy mamlakatlar rahbarlari bizni qo'llab-quvvatlayotganidan ham bilsa bo'ladi.

Tan olib aytish kerakki, asarda keltirilgan yo'nalishlarga monand harakat qilib ko'p yutuqlarga erishdik, lekin hali oldimizda turgan muammo va kamchiliklar talaygina va bularni bartaraf etish uchun har birimiz ma'sulmiz. Siz bilan bizning vazifamiz davr oldimizga qo'yayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbollarimizni aniq va ravshan, tasavvur etib, xalqimizning tinch va farovon turmushini taminlashdir, jahon maydonida o'zimizga munosib o'rin egallab olishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "O'zbekiston asrga intilmoqda" asarida aytilganidek, yutuqlarimizga, islohotlarning aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga tayangan holda, ularni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olingan. Shuni unutmaylikki, bundan bir necha yil muqaddam boshlangan yangilanish jarayonining yutuqlari, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitlarini yaratish, oldimizga qo'ygan maqsadlarga yetishmog'imiz - bularning barchasi istiqbol rejalarini nechog'li aniq, oqilona va eng muhimi, real belgilab olishimizga bog'liq ekanligi asarda keltirilgan va bu belgilangan rejalar, tamoyillar va yo'nalishlarni xech narsaga chalg'imasdan, qatiyatlik bilan amalga oshirishimiz lozim, hamda biz kelajakka - XXI asrga ishonch bilan qaraymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, "O'zbekiston", 1999.
2. Abdulqosimov H.P., Vahobov A.V., Rahimova D.N., Norboev B.I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. – T.: TDIU, 2001.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilgan "Milliy istiqloq oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'risida"gi Farmoni."Ma'rifat" gazetasi, 2001 yil 20 yanvar
4. Ergashev I. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Navro'z, 2005..Barot Boyqobilov. O'zbeknoma. T.: "Sharq". 1999.
5. Boboev X., ofurov Z. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2001
6. Boydadaev M. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari.
7. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot. T.: «O'zbekiston», 2001.
8. Jo'raev N. Yangilanishlar kontsepsiyasi yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. – T.: Ma'naviyat.
9. Zokirov S. huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – T.: «Mehnat», 1999.
10. Islomov Z. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. –T.: O'zbekiston, 2005.
11. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. Prezident Islom Karimov tarafdorlarining tanqidiy mulohazalari. –T.: O'zbekiston, 2001.
12. Paxrutdinov Sh.I. Tahdid halokatli kuch. – T.: Akademiya, 2001.
13. Raxmonov R., Abdullaev N. Mahalla: o'z-o'zini boshqarishning huquqiy kafolati. – T.: Mehnat, 1999.

14. Rahimov I va boshqalar. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. T.: «Universitet», 2001.
15. Qodirov A. Ma'naviyatning iqtisodiy tamoyillari. – T.: Ma'naviyat, 1999.
16. Qirizboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. –T.: «Sharq», 1998.
17. Qirizboev M. o'zini-o'zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining asosi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003.
18. G'ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. –T.: «Adolat», 2003
19. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyati. –T.: «Sharq», 2003.
20. Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. –T.: «Akademiya», 2002
21. [www.gow.uz](http://www.gow.uz)
22. [www.islomkarimov.uz](http://www.islomkarimov.uz)
23. [www.naslib.uz](http://www.naslib.uz)
24. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
25. <http://elektions.uz>
26. <http://sputniknews-uz/com>

## GLOSSARIY.

**Mafkura** (arab. "mafkura-nuqtai nazarlar va e'tiqodlar sistemasi, majmui)- jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va oyalar majmui. Mafkura ijtimoiy borliqning, ya'ni keng ma'noda jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, bir butun sistema holiga keltirilishi va bu sistemaning amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

**Ma'naviyat-** (arab. "ma'naviyat"- ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiy, axloqiy, diniy tasavvulari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi.

**Jamiyat-** kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlikfaoliyatlari majmui, jahonagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jahonning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, faliyatlari va ularga mos keluvchi munsabatlardir.

**Fuqarolik jamiyati-** bir qancha gumanitar fanlarning tushunchasi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi noinsoniy va siyosiy lashmagan ma'naviy va iqtisodiy munosabatlarning yaxlit majmuasi. Fuqarulik jamiyatning shakllanishi bq'rikenglik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ezgulik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Jamiyatning madaniyati va ma'lumot darajasi o'z-o'zini tashkil etish sinergetik jarayonlari, hamkorlik, birdamlik va o'z- o'zini bilishga qabul qilishga qanchalik tayyor bo'lsa, u shunchalik fuqaroviy jamiyati bo'ladi.

**Davlat-** hokimyatning vujudga kelishi va faoliyat ko'rstishi natijasida shakllangan jamiyat hayotini siyosiy tashkil etishni bildiradi. Qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud sistemasi idoralaridan iborat oliy hokimyat bo'lib, jamiyat siyosiy sistemasining asosiy bo'inidir.

**Qonun-** Muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining hususiyat va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lumbir qat'iy natijani taqozo etadigan tevarak-atrofdagi narsa va

hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy, barqaror munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya.

**Siyosat-**(yunon. Politika-davlat va jamiyat ishlari)- davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimyatni amalga oshirish bilan boliq bo'lgan faoliyat.

**Demokratiya-** (yunon. ‘demos’- xalq va ‘kratos’- hokimyat)- “xalq hokimyatchiligi” ma’nosini anglatadi. Demokratiya ikki shaklda namoyon bo'ladi; 1) vakillik shakli; 2) bevosita shakli; Vakillik shaklida fuqarolar qonunchilik, ijroiya va boshqa vazifalarni bajaruvchi organlarni saylaydilar, fuqarolarning o'zlari bevosita bu funksiyalarni bajarishda ishtirok etmaydilar. Davlatning asosiy vazifalaridan biri- jamiyatdagi kuchlarni kelishish va murosa asosida birlashtirib, ular umum rizo bo'ladigan qarorga olib kelish va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qilishini ta'minlashdan iboratdir.

**Liberallasuv-** (lot. Liberalis- ozod, erkin) –ijtimoiy ,siyosiy ta'limot va ijtimoiy harakat bo'lib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va boshqa soxalarida shaxa erkinligini qadriyat sifatida qaror toptirish oyasini ifodalaydi. Siyosiy liberalizm fuqarolarni davlatni boshqarishda ishtirok etishni tan oladi, ya'ni davlat boshlii markaziy va mahalliy organlarga vakillarni saylashda hamda ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlarga birlashish huquqi borligini e'tirof etadi.

**Konsepsiya-** (lot.conceptio- majmua, tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muyyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adaabiyotda – biror asarning asosiy oyasi badiy asar mohiyatini , ijodkorning ‘meni’ ni ifoda etadi. Biroq badiy asar ayrim hollarda muallifning sub'yektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Bazan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan asar o'z aksiga ko'ra muallifning badiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. O'quvchining ma'naviy- ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoifydan kelib chiqqan holda badiy asar alohida takidlanib, ochiqdan- ochiq ifoda etiladi.umuman badiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarihidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga tasir etish darajasini belgilaydi.

**Modernizatsiya** (fran.moderisatio, modern- yangi, zamonaviy)- jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy- tarixiy jarayonni ifodalovchi tushuncha.

**Sivilizatsiya-** (lot.civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. U madaniyat tushunchasining sinonimi sifatida, jamiyat va madaniyat rivojlanishining darajasini, varvarlikdan keyingi jamiyat rivojlanishidagi bosqich sifatida tushuniladi.

**Qadriyat-** voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy- manaviy ahamiyatni ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, marifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obidat-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqala qadriyat hisoblanadi.

**Taraqqiyot-** rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalganshakli, uning yuksalishi. Adabiyotlarda taraqqiyotni ko'rincha rivojlanish bilan aynanlashtirib qo'yishadi, aslida u rivojlanishning bir yo'nalishidir. Shuningdek, taraqqiyotni ayrim adabiyotlarda faqat jamiyatdagi rivojlanish ma'nosida qo'llashadi, bu ham biryoqlama yondashuvdir. Taraqqiyot falsafiy adabiyotlarda progressive rivojlanish tarzida qo'llaniladi. Odatda rivojlanishning 2 muhim yo'nalishi bo'lib, biri taraqqiyot (progressiv), ikkinchisi inqiroz (regressiv) deyiladi. Taraqqiyotni faqatgina jamiyatda qo'llashning hatosi shundaki, jamiyatdan tashqaridagi sistemalarda ham yuksalish ro'y beradi. Rivojlanish bir sistema uchun taraqqiyot, boshqa sistema uchun regress bo'lishi mumkin. Taraqqiyot mikr makro dunyoda ham sodir bo'ladi. Taraqqiyot tufayli olamda mukammallashish, yuksalish ro'y beradi, uvujudga kelish, murakkablashish, ulayish, yangilanish, tiklanish, sistema yasash jarayonlari tarzida amalga oshadi. Taraqqiyot yaxlit jarayondir.